

Maktabda nimalar o'qitilmaydi

# ZAG'IZG'ONNING ARG'IMCHOG'I:



Dilfuza Shomalikova

# ZAG'IZG'ONNING

*arg'imchog'i*



*„Ensiklopediya  
nashriyoti“*

## ZAG'IZG'ONNING ARG'IMCHOQ'I

Bahor kelishi bilan arg'imchoq uchgim keladi. Mazzada! Ko'ylagim ham, sochlarim ham arg'imchoqni sog'inadi. Qayerdan bilasan, deysizmi? Uchayotganimdaaa, ko'ylagim hilpirab qanotga aylanadi, sochim shamol bilan quvlashmachoq o'ynaydi. Men ularning ovozini eshitaman: „huv-huv“. Gapimga buvim kulib qo'yadi. Kun sanayman.

– Bir narsani hoxladingmi, kuching yetgunicha mehnat qil, sabr bilan kut, – deydi buvim. – Shunda uning tami totli bo'ladi.

– Buvijon, arg'imchoqni yeb bo'lmasa, deyman. Bu yil maktabga chiqsam bilib olarman...

Havoning isishini intiqib kutaman.



Yakshanba kuni barvaqt uygʻonib derazadan qaradim. Buvim qoʻlida arqon bilan tutning tagida turibdi. Darrov oldiga tushdim.

– Endi kun isidimi? – dedim.

– Haaa.

– Unda nimaga oʻylanib turibsiz?

– Har ishning ilmi bor: argʻimchoqni shunday tashlashimiz kerakki, tutga ozor yetmasin, – buvim arqonni tutning shoxida qoldirib uyga kirdi. Men ham ularga ergashdim. Oshxonadan taxta stulcha oldik. Qaytib hovliga chiqsak, zagʻizgʻon arqonni choʻqib – choʻqib pastga tushirardi. Buvim jim qoldi. Zagʻizgʻondan koʻzimni uzmay turardim.

– Buni aqlliligini qara, – ovoz kelgan tarafga yuzlandim. Qattiq gapirdikmi, zagʻizgʻon uchib ketdi. Endi bizga stulchani keragi boʻlmadi. Arqon yaxshilab bogʻlandi. Kichkinagina koʻrpachani mahkam qilib toʻshadik. Men kechgacha argʻimchoq uchdim. Akamga, opamga maqtandim. Uhlashimdan oldin derazadan qarab qoʻydim. Ertalab uygʻonishim bilan oynadan hovliga moʻraladimu... jim qoldim. Keyin buvimning oldiga yugurdim.

– Zagʻizgʻonning bolasi ham argʻimchoq uchishni sogʻingan ekan. Qarang...

Kichkinagina zagʻizgʻoncha koʻrpachaga qoʻnib olgan, shamol boʻlgani sari argʻimchogʻi tezlashardi. Tut shoxining tepasiga esa ona zagʻizgʻon qoʻnib olgandi.

## TUPROQ O'YNAYOTGAN BOLA

Dunyoni anglagan bolaning o'z o'yini bo'ladi. Bola o'yin o'ynab ulg'ayadi. O'yinlar qator-qator bog'lanib ketadi. Bolalikning sog'inchlari esa sog'inch manziliga yetaklaydi. Manzillar sog'inchning suratini muhrlaydi: mahallaning bolalari to'p-to'p bo'ladi. Atak-chechak qilgani-da ko'zlaganiga yetgisi keladi: ilk qadamning ilk o'yini tuproq bo'ladi. Bolakay uni qo'llariga olganida chehrasi yorishadi, barmoqlarining orasidan to'kib zavqqa to'ladi: keyin u atrofni unutadi shartta yerga o'tirganicha nimadir chizishga, yasashga tushadi. Bola tasavvur ifodasini ilg'ay boshlaysan: uy, quyosh, unga eltadigan yo'l. Yo'llar... har kimning o'z yo'li o'z uyiga – o'z mahallasiga – o'z Vataniqta eltadi.

– Men o'zimizning uydagi Oyni chizdim, – deydi jajji bolakay tuproq qo'llari bilan katta doira shaklini ko'rsatib. – Samandarning quyoshi boshqalarnikiga sirayam o'xshamaydi...

Bunda sir-u sinoatlar qorishib ketgandek bo'ladi: ajdodlar bilan avlodlarni bog'laguvchi rishta avvali shu emasmi, deya o'ylanib qolasan.

Men Vatanni ko'rgandek bo'laman: uning bo'yi, basti, o'tmish va kelajagi tuproqdek azaliy va tuproqdek abadiylikka shohid.

O'z oyini chizayotgan bola o'z uyini dunyolarga almashtirmaydi. Ularni kuzatarkanman, yer bilan tillashayotgan, dillashayotgan, oddiy va mo'jizaviy hikmatni ko'raman. Ajdodlar va avlodlarni bog'lovchi rishta asli shu tuproq!

Tuproq o'ynayotgan bola – uni o'yindan ajrata olmay-san. Nega? Balkim Vatanning isini shu lahzalarda tuyayotganini biz bilmasmiz...

Bunda quyoshning ertagini tinglaymiz.

Bunda tuproq cho'pchak aytadi: cho'pchak ming yillar qa'ridan keladi, kelaveradi... Ertak tinglayotgan bolaning holatini kuzatganmisiz? Uning ko'zlari hayratdan katta ochiladi, qoshlari ko'tarilib-ko'tarilib tushadi. Ertakka berilib ketgandan quloqlarini ertakchining og'ziga tutgandek bo'ladi.

Bolajon tuproq o'ynagancha quvnoq ko'zlari bilan Sizga boqadi. U tuproqdan quvvat oladi. Shu quvvat bilan ulg'ayib, quvvatga to'ladi:

Yillar o'tib yana tuproq bilan sirlashadi: bog'u rog' bunyod etadi. Rizq – ro'z yaratadi. Nasibasi butunligidan ko'ngli to'ladi...

Umrining har bekati – har takrorida tuproq bilan yuzlashaveradi. Endi u bir qarich yer olib Vatan qura boshlaydi. Hech kimnikiga o'xshamagan, hatto quyoshi-yu oyi ham o'zinikiga o'xshagan Vatan. Hovlisidan shildirab oqayotgan suvning shiviridan ham o'zbekcha ohang taraladigan – go'sha betakror zamin sayqali.

Tuproq o'ynayotgan bola shunday bo'y cho'zadi.

Vatanning tik qaddi rostlanib, rostlanib boraveradi.



## **MENING AZIZ VATANIM**

Onam quyoshdan ham erta turardi. Kunlarning birida men bedanalarga to‘r qo‘yish uchun barvaqt uyg‘ondim. Onam meni shirchoy bilan siyladi. Sopol ko‘zachada qaynatilgan sutning yuzi nimpushti ko‘pik bilan qoplangan, tagidagi sut juda mazali edi.

Undan tayyorlangan shirchoy xushta‘m va ajoyib.

Bu siylov mening hayotimni tamomila yaxshi tomonga o‘zgartirib yubordi: onam bilan shunday xushbo‘y choy ichish uchun quyoshdan oldin turishni odat qildim.

Asta-sekinlik bilan bunga shunday o‘rgandimki, endilikda quyosh chiqquncha uxlashni tasavvur ham qilolmayman.

Shaharda ham tong bo‘zarmasdan uyg‘onadigan bo‘ldim. Tongda ijod qilish ehtiyojimga aylandi. Hozir ham nimalarnidir qoralayapman. Saharda butun hayvonot va o‘simlik dunyosi uyg‘onadi, o‘z hayot tarziga mos yangi kunni qarshilaydi.

Tez – tez shu haqda o‘ylanib qolaman: agarda biz o‘z ishimiz uchun ham quyosh bilan barobar tursak-chi! Unda qanchadan-qancha odamlar sog‘lom bo‘lib, hayotlari quvonch va baxtga yuz tutardi.

Nonushtadan so‘ng men bedana, mayna, bulbul, chigirtka, musicha va kapalaklarni tutish uchun yo‘lga chiqdim. U paytlari menda hali ov quroli yo‘q edi. Ayni paytda ham menga uning hojati yo‘q.

Ov qilish men uchun ilgarilari ham, hozir ham nimanidir topib olishday zavq bag‘ishlaydi. Tabiatdan shunday manzaralarni izlashim kerakki, men ularni hech ko‘rmagan bo‘lay, balkim hali hech kim o‘z hayotida bunday go‘zallik bilan to‘qnashmagan bo‘lsin.

Boyligim – o‘rmon bo‘lib, u juda ham katta edi, so‘qmoqlari esa adoqsiz.

Mening aziz yosh do‘stlarim!

Biz tabiatning haqli egalarimizki, quyosh xazinasi biz uchun mo‘jizaviy hayot in‘omidir.

Nafaqat bu xazinani asrab-avaylash, balkim uning sir-asrorlarini ochib, ko‘z-ko‘z etmoq darkor.

Baliqlar uchun shaffof suv kerak – shuning uchun ko‘llarni ko‘zqorachig‘imizdek asraylik.

O‘rmonlar, cho‘llar, tog‘larda bebaho jonivorlar yashaydi. Ularning har birini aziz bilib, bu makonlarning asl qo‘riqchisi bo‘lib qolaylik.

Baliq – suv, qushlar – toza havo, jonzotlar – o‘rmon, cho‘l va tog‘lar bilan tirik.

Insonga esa ona – Vatan kerak.

Tabiatni asrash – Vatanni asrash deganidir aslida.

## **BIZNING BUYUK BOBOLARIMIZ**

Har bir bola takrorlanmas dunyo. Uning olamida orzular parvoz qiladi, xayolida mo‘jizalar yaratadi. O‘zini qudratli his qiladi – o‘qiydi, izlanadi! Kashfiyotlar egasiga aylanadi.

Har bir bola buyuk ajdodlariga o‘xshagisi keladi: Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Farg‘oniy...

Ulug‘lar ham sizdek bola bo‘lishgan, aziz o‘quvchi! Mana, o‘qing:

„Do‘mboqqina bola har kuni ertalab Amudaryo sohilini aylanib yurar, giyoh va gullarni, mevalarni va mayda toshlarni terardi, so‘ng uyiga oshiqardi. Bir kuni yiqqan giyohlarini olib mahalladagi hamma taniydigan tabibga bordi-da, o‘tlarning otini so‘radi. Tabib bolakayga dorivor o‘simliklarni tushuntirdi.



Shundan so'ng ular tez-tez ko'rishib, tabib bolaning tabiatga qiziqishini yanada oshirdi“.

Bu – Abu Rayhon Beruniy edi. Yoshligidanoq matematika va astronomiya, geografiya va tarixga behad qiziqdi, asarlar yozdi. Tabiat sirlarini bilishga kirishdi. O'rta Sharq olimlari orasida birinchi bo'lib, yerning dumaloq shaklda ekanligini isbotladi, 5 metrlik globus yasadi, dunyo xaritasini chizdi.

Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan Abu Ali ibn Sino o'n yoshligida algebra, geometriya, falsafani o'rgandi. Yulduz turkumlarining qanday atalishini aniq ko'rsata olardi. U iste'dodi, xotirasi zo'rligi, zehni o'tkirligi bilan ajralib turar, ilmlarni tez va oson o'zlashtirardi. Buxoroda 12 yoshda qonunlar bilimdoni, deb tan olindi.

Tibbiyotga o'zgacha mehr va ixlos qo'ydi. Bu borada tinimsiz izlanar, tajribalar o'tkazardi. Uning nomi tezda el og'ziga tushdi, kamol topdi. 17 yoshida mohir tabib sifatida tanildi. Hukmdor ibn Mansurni davolab, saroy kutubxonasiidan foydalanish imkoniyatiga erishdi. Ibn Sino mutolaa bilan jiddiy shug'ullandi, bu uni davrining eng ilmli kishisi darajasiga ko'tardi. Tibbiyotdagi ulkan tajribasini va bilimini „Tib qonunlari“, „Shifo kitobi“ga jamladi. Abu Ali ibn Sino dunyoda „Avisenna“ nomi bilan shuhrat qozondi.

„Algebra“ so'zi esa mashhur matematik, astronom va geograf Muhammad Muso Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Uning „Al-jabr“ risolari Yevropada „algebra“ deb ataldi. Shu asar bois bu atama dunyoga keldi.

Donishmand sifatida tan olinib, samarali ijod qildi. Sharqning dastlabki akademiyasi „Donishmandlar uyi“da faol ishtirok etdi.

Xorazmiyning arifmetika va aalgebraga oid asarlari o'rta asrlar matematika davrini boshlab berdi. „Yer surati“

kitobi O'rtta asr Sharqida dastlabki geografik asar sanaladi. Xorazmiy – birinchilardan bo'lib, Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyilishini isbotladi.

Aziz o'quvchilar, bular – buyuk ajdodlarimiz hayotidan ayrim lavhalar.

Ular haqida bundan-da, ko'p bilishga haqlisiz. Chunki bobolarimiz shu qadar buyuk bo'lishganki, bu ma'rifat nuri bizning asrimiz yo'llarini ham nurafshon etmoqda.

Aziz o'quvchim! Yana siz bilan uchrashdik. Har biringizning o'ylaringiz, intilish va izlanishlaringizdan xabar topib, quvonib ketaman. Qanday qilib deysizmi?.. Ha-a, topdingiz!

## **MAKTUB YOZAYOTGAN BOLA**

Siz yo'llagan maktublarda qalbingiz – o'zligingiz ko'rinadi. U tiniq suvdagi aksingizdan ham shaffof ko'rsatadi orzularga to'la yuragingizni: „Shamollarga shivirlab aytganlarim shab-bodalarda yetib borsin...“, „Nimaga kattalar yoshligini gapiraverishadi. Men esa kichkinalikdan charchab ketdim...“, „Iltimos, tanlovda menga birinchi o'rinni beringlar. Ota-onamni shunaqangi xursand qilgim kelyaptiki...“. Qog'ozga tushgan soyasiz samimiy tuyg'ular ifori gullab turadi nomalar qatlarida.

Tahririhatdagi ish kuni maktublar bilan tanishishdan boshlanadi. Ular har xil, bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini takrorlamaydi.

Ayting-chi, sinfingizdagi hamma bola xat yozadimi? (kimga bo'lsa ham) Yo'q, deysiz. Ammo redaksiyalarga bir martagina xat yozib, javob olishni orzu qilmagan bola kam topiladi.

Maktab yozayotgan bola xayollarini jamlaydi. Tezda chizib, yozib bo‘laman degani aksiga aylanadi. Bilganlari kamligini anglaydi. U yana izlanishga shoshadi: tortilgan har chiziqning qonun qoidasi aylanaga o‘xshaydi. Unda hayajonlar to‘qnashuvi suratlarga ko‘chadi. Qalam tutgan kichkintoy o‘ylaganlari qog‘ozga to‘kilganida sakragilari ke- lib ketadi, qushdan ham yengil bo‘ladi...

U o‘zini mo‘jiza yaratayotgandek his qiladi. Aslida bu ixtirolar ostonasiga ilk qadam... Orzu darvoza-larining as- tagina qoqilayotgan saslariga o‘xshaydi...

Maktub yozayotgan bola – o‘z o‘ylariga o‘zi narvon qo‘yadi. U osmon qadar yelka kerib boradi. Uchgisi keladi... goho varrakdek... ammo tushgisi kelmaydi... u haqda o‘yi ham yo‘q.

Xayoldagi kashfiyotdan bolakay shunchalar zavqlanadi. Dunyodagi eng totli ne‘matning ta‘mini totgandek... U yaratishning hali nima ekanligini anglamay, uning saodati- dan quvvatlanib borayotganga o‘xshaydi...

Maktub yozayotgan bola – u farzandingiz, aka-opangiz yo uka-singlingiz...



Tasavvuridagi dunyosi bilan tillashayotgan, sirlashayotgan va ildamlayotgan bolaga havas qiling. O'z olamini axtarayotgan va yaratayotgan bolaning yoniga tiz cho'king! U ertasiga qadam tashlayapti. Siz ham maktub yozishga o'tiring! Shunda bu zavqlarning nima ekanligini o'zingiz bilasiz...

## TUGAMAYDIGAN XAZINA

Dunyoning donishmandlari uzoq o'ylarga tolibdi: olganing bilan tugamaydigan, berganing bilan kamamaydigan xazina axtarishibdi. Javobning topilishi amri mahol bo'libdi. Yarim tunda ular yana yo'llarida davom etibdi. Uzoqdan yorug'lik taratayotgan uy ostonasiga qadam qo'yobdi-yu, to'rt devorning uch tarafiga yerdan shiftgacha taxlangan javondagi kitoblardan nur yog'ilayotganiga ko'zi tushibdi. Ular izlaganini topganiga iqror bo'lib, donishmandlar donishmandiga chopar jo'natibdi...

U nimaligini allaqachon bilib ulgurdingiz-a, topqir bolajon!



Siz bayramlarda azizlaringizni qutlashga shoshasiz. O'zingiz ham shodiyonalarda aytmasangiz-da, hadya kutasiz. Ayniqsa, yangi yil arafasida.

Shunday kunlarda Prezidentimiz g'oyalari va tashabbuslari asosida qad rostlagan „Ma'rifat markazi“ binosi yurtdoshlarimizga eng bebaho tuhfa bo'ldi. Bu koshona mintaqada yagonaligi bilan ham kishini hayratga soladi.

Muhtasham imorat mustaqillik maydoniga tutashib uyg'unlik kashf etgan.

Unda 1000 o'rinli Simpoziumlar saroyi va zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlangan Navoiy bobomiz nomidagi milliy kutubxona joy olgan. Internet tarmog'iga ulangan kompyuterlar har bir kitobxon uchun betakror imkoniyatlarga ochilgan ma'rifat dunyosidir. Kutubxonadagi jarayonlar axborotlashtirilgan yaxlit axborot kutubxona tizimiga ega. O'quv zallariga elektron katalog, internet va elektron ma'lumotlar bazasiga ulangan kompyuterlar o'rnatilgan.

Bunda kitoblar muzeyi, kitoblar do'koni, kinozallar, internet va mediamarkaz, bolalar va dam olish xonalari mavjud. Yaratilgan sharoit esa har qanday ilm tolibining talab va ehtiyojlariga javobdir. Yaqindagina dunyo kutubxonalariga yetib bo'lmas havas deb qaragandik. Bugun esa ular lol...

Kutubxona – nurxona, deydi. Undan taralayotgan yog'du kunlarimizni, umrimizni ziyoga to'ldiradi.

Zero, ilmu ma'rifatning qalblarga tushgan cho'g'-alangasi hamisha haroratli bo'ladi. Ilmga qo'l bergan, bilimga darvozalari ochilgan elning ertasi qo'sh quvonchlarga peshvoz chiqadi.

Tuganmas xazinaning tafakkur javohirlari yuraklarning qat-qatlariga bilim urug'larini qadaydi, qadayveradi.

Kamolot pillapoyalaridan odimlab, odimlab ketadi bizning ertamiz.

# QUYOSH BILAN SALOMLASHAMAN

(Manzara)

Bir-birimiz bilan salomlashamiz – buvim, ota-onam, ukalarim. Bobom esa bog‘ hovlida tongni kutib oladi. Ularning ortidan ergashamiz, savolga tutamiz:


– Nima qilayapsiz, bobo?

– Quyosh bilan salomlashayapti, – buvim javob berdi. Birozgina tushunmay turaman... Mening esa quyoshga qo‘l tutgim keladi. Qo‘llarimni uzataman osmonga. Bobom ko‘nglimdagini anglaydi.

– Istiqlol oftobi umringni bezagani shu-da,

– qo‘llari bilan boshimni silaydi. – Sharoitlari muhayyo bog‘cha-yu maktablar, sport koshonalari, shifoxonalar yurtning har go‘shasiga ko‘rk bergan. Ikki cheti gulzorga aylangan yo‘llar: yo‘laklar havas va orzudagi hovlilarga boshlaydi. Yoshlari har sohada birinchi! Dunyoni lol qoldirayapti.

Ha, quyosh ham bu yurtga salomga shoshadi.



## ONAMNING BOG'CHA OPASI

Tongning uyquasi qochdi. Mastona tongdan ham oldinroq turdi. Faqat uyg'onganini oyisiga bildirgisi kelmadi. Bugun bog'cha opasining bayrami.

– Mana, – u barmoqlarini yoyib, ko'zlarini katta ochganicha sanashga tushdi: – bir, ikki, uch... Shuncha she'r yodladi. U chiroyli ko'yлагini kiyib, sochlarini to'g'riladi. Toshoyna qarshisida turib, she'rini takrorladi. Keyin qarsak chalib, sakrab qo'ydi. Oyisi qiya ochilgan eshikdan asta qarab:

– Bugun xursandsan, qizim? – dedi.

– Bog'cha opamizning bayrami...

– Ha-a... – ona bilmagandek bosh silkib qo'ydi.

– Bilasizmi, Oyijon, men ularga she'rlarimni to'xtamay, tutilmay aytib beraman!

– Sen aqllisan-da bolam, – Ona qizining soch turmagini ehtiyotlab, boshini silab qo'ydi.

– Ularga-chi, oyi, yana qo'g'irchog'imni ham sovg'a qilmoqchiman.

Ona quloqlariga ishonmadi. Mastona termulib turdi.

– Nimaga bunday qaraysiz?

– Rostdanmi? Axir qo'g'irchoqni olib berishimni qancha kutding. Uni juda yaxshi ko'rasan-ku.

Qizcha shkafdan qo'g'irchog'ini ehtiyotlab oldi:

– Bog'cha opamga eng yaxshi narsa sovg'a qilmoqchiydim.

Ona quvonganini yashirolmay qizini bag'riga bosib, o'pib qo'ydi. Hech kimga ishonmaydigan o'yinchog'ini bermoqchi.

– Siz ham xursandmisiz, Oyi?

– Judayam qizim, judayam.

– Bog'cha opamiz sizniyam bog'cha opangiz bo'lganmi?

Ona kulib qo'ydi. Qizcha esa javobini kutardi.

– A... ayting, sizniyam bog'cha opangizmi?

– Ha, qizim, meniyam bog'cha opam.

## OSMONDAGI QUSHLAR UYASI

Uzoqdan qushlarning tanish ovozi eshitaladi. Keyin bu ovoz asta yaqinlashadi. Qushlar galasi osmonni to'ldiradi. Bolalar deraza oynalariga yopishib, chapak chaladi. Ularni kuzatadi: qushlar goh aylana bo'lib qanot qoqadi. Goho bir-birlariga yo'l berayotganga o'xshaydi. Qarab tursangiz, ochilib yopilayotgan gul shaklini oladi. Bir zumda tizilishib parvozida davom etadi.

Bolalar esa qushlardan ko'zini uzmay onasini savolga tutadi:

– Qushlar raqsga tushadimi?

– Shunaqa bo'lsa kerak, – ona miyig'ida jilmayib qo'yadi.





- Unda qushlar qo‘shiqsiz o‘ynaydimi-a?...
- O‘zi qo‘shiq aytib, o‘zi o‘ynaydi.
- Unda kim chapak chaladi?
- Shamol, bo‘lsa kerak-da.
- Bizlar ham qarsak chalsak bo‘ladimi?
- Albatta, – ona derazaning oynasini asta yopadi. – Sal nariroq turinglar, shamollab qolasizlar.
- Qushlar shamollab qolmaydimi?
- Ular o‘rganib ketishgan, osmon o‘zlarining uyi-da, bolam.
- Osmonda qushlarning uyasi bormi?
- Uyiga uchadigan yo‘l bor, arg‘imchoq solib uchaveradi.
- Arg‘imchoq biznikiga o‘xshamaganmi, nimaga ko‘rinmaydi?
- Ularning arg‘imchog‘i o‘zi bilan bolam.
- Men qushlarning arg‘imchog‘iniyam, o‘ziniyam yaxshi ko‘raman. Ular haqida ertak eshitgim kelyapti.
- Ertakni-ku bilaman. Ammo senga o‘zim ko‘rgan, bilgan voqeani aytib bera qolay.
- Bo‘pti...
- Qushlar judayam aqlli bo‘ladi. Yaxshilikni, mehрни unutmaydi. Yoshligimizda tog‘ang bilan oppoq kabutarlar derdik. Hovlimizning bir chekkasidagi ajratilgan yerga don separdik. Ular darrov paydo bo‘lardi. Ular kelardi-da, parvo qilmay donlashga tushardi. Ba‘zan tog‘angning qo‘lidagi donni yeb, keyin yelkasiga chiqib g‘urillardi.
- Erkananarkan-da, rahmat aytganimidi, bu, – qizaloq shoshganча davom etardi. – Bizlar ham rahmat aytamiz-ku...
- Ha... Qaldirg‘ochlar esa bola ochgan uyasini hech qachon unutmas ekan. Laylak, turna, oqqush haqida eshitgansan-a?
- Eshitganman ozgina... Lekin sizga o‘xshab o‘zimning

ko'zlarim bilan ko'rgim kelyapti. Ular ertakdan ham yaxshi ekan.

– Unda har kuni tabiatni kuzat.

Ko'rganlaringni yozib borish uchun daftar tut.

Qizaloq sevinib ketdi. Sumkasidan yangi daftar oldi. Muqova ustidagi birinchi qatorga „Tabiatning kundaligi“, deb yozib qo'ydi. Quloqlari ostida qushlarning arg'imchoq solib uchayotgan ovozi jarangladi.

## QORNING OVOZI

Laylak qor yog'a boshladi. Bog'chamizning oynavand yo'lagiga yugurib chiqdik. Bolalar yangi yil bayramida yod aytadigan she'rlarini bor ovoz bilan o'qiy boshladi. Hech kimning she'rini eshitib bo'lmasdi. Bog'cha opamiz ko'rinishi bilan hammamiz saf tortdik.

– Opa, bu laylak qor-a? – dedi Anvar.

– Yo'q, yo'q, kapalak qor, qaragin qanotlari borga o'xshaydi, – Munisa etaklari keng ko'ylagini ikki yonidan tutib aylandi.

Qo'l ko'tarib gapirishga chog'langanlar orasidan Jamshid bir qadam oldinga chiqdi:

– Qor pastdan tepaga yog'ayotganga o'xshaydi, yaxshilab qaranglar.

– Bolalar gur-r etib oynadan osmonga termulishdi.

– E-e-e, rostdan ham, – Davron gapini tugatishga ulgurmadi.

– Hecham-da, – dedi Doston. – Osmonning elagidan un to'kilayotganga o'xshaydi.

Juda kam gapiradigan, hech kim bilan urishmaydigan o'rtog'imiz unga gapirganda hammamiz jim bo'lib qoldik.

– Menga qorning ovozi eshityapti, – dedi u past ovozda.

Qor hammamizni kelayotgan yil bilan tabriklayotganga o'xshaydi. Eshitinglar...

Bizlar ham quloq tutdik. Tanish ovoz: uzoq-uzoqlardan yo'lga tushgan Qorbobo hassasining do'q-do'qi...

Qorqizning quvonchi unga qo'shilib ketgan edi.

## NIQOB

### *Hikoya*

Bayramga tayyorgarlik boshlandi. Sinfxonalar bezatildi. Ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilari quvonchdan qanot chiqarganga o'xshardi.

– „Alifbe“ bayramidan keyin sahna ko'rinishini tayyorlaymiz, – dedi o'qituvchi. – Bilasizlarmi bolajonlar, unda nima bo'ladi?

O'quvchilar bir muddat jim qolishdi. Keyin kimdir „ha“, dedi sekingina. Uning ovozi eshitilmadi ham.

– Bilmaymiz, – sinfnings yarmidan ko'pi qo'llarini ko'tardi.

– O'zingiz ayting ustoz, o'zingiz ayting...

– Ertak qahramonlariga aylanib, o'zimiz ertak sahnasini qo'yamiz.

– Qanaqa qilib? – bolalarning ko'zlari katta ochilib, yelkalari-ni qisishdi.

– Men ertakchi bo'laman. Sizlar ayiq, tulki, quyon, yo'lbars, bo'ri qiyofasida rol ijro etasizlar. Rollarni mahoratingizga, ko'rinishingizga qarab taqsimlaymiz.

Rol olgan bolalar o'sha jonivor qiyofasiga ovozlarini moslashtira boshladilar. Azizbek bo'ri bo'lishi kerak edi.

– Tezroq niqob topinglar, – o'qituvchi tinchlaninglar degan,

degan ishorani qildi-da, davom etdi, – Aka-opalaringizda bordir...

– Mening opam ham, akam ham yo‘q, singlim bor,–dedi Azizbek.

– Unda sotib olinglar.

– Dadajon, bo‘ri niqobini olib bering, – dedi Aziz ishdan qaytgan otasiga.

– Ertaga olib kelaman...

Azizbek har kuni buvisining ertagini eshitmasdan uxlamasdi. Bugun faqat tezroq niqob taqib ertak qahramoniga aylangisi kelib ketdi. Ertakni oxjrigacha eshitmay uxlab qoldi. Kech bo‘lishini, dadasining ishdan qaytishini kutdi.

– Ertaga albatta olib kelaman, – eshikdan kirgan dadasi o‘g‘lini bag‘riga bosdi. – Xayolimdan ko‘tarilibdi.

Azizbek „mayli“, dedi-yu, yotog‘iga kirib ketdi. Buvisi ertak boshladi: Bo‘ri va echki bolalari... U quloq solib tinglarkan ertak nihoyasiga yetganda „men bo‘ri bo‘lishni xohlamayman“, dedi jahl bilan.

Buvi hech narsaga tushunmadi.

Azizbek ertalab tursa, choy ichib o‘tirgan dadasi bo‘rining niqobini taqib, o‘g‘liga yuzlandi. U beetibor yuvinish xonasiga kirib ketdi. Ota hayron bo‘ldi.

„Niqobni maktabga olib bormasa, dadasi olib bermagan, deydi. Chunki kecha ertaga, albatta, olib kelaman degandim“. Aziz shu o‘y bilan niqobni sumkasiga soldi.

Sinfga kirib indamay xomush o‘tiraverdi.

– Bugun ham esingdan chiqdimi? – o‘qituvchining savolidan butun sinf Azizbekka qaradi. U sekin sumkasini ochdi. Niqobni olib ustoziga berdi-da:

– Mana, – dedi u. – Men bo‘ri bo‘lishni xohlamayman!

Ustoz ham, bolalar ham jim bo‘lib qolishdi.

## INSHO

Katta sinfga o'tganimizga rosa quvondik. Endi darslar bitta xonada bo'lmaydi. Fan xonalariga ko'chib yurish mazza. O'qituvchilarimiz ham ko'paydi. Lekin... ona tili va adabiyot o'qituvchisi boshqacha. Hech kimga o'xshamaydi.

Avvaliga qo'rqdik, judayam qattiqqo'l, besh baho olish qiyin deyishdi yuqori sinfdagilar. Keyin yaxshi ko'rib qoldik: nimaga deysizmi? Chunki, bizlarga sizlab gapirishi judayam yoqdi.

Hatto zo'rg'a „uch“ oladigan bolalar ham dars tayyorlab keladigan bo'ldi.

Qo'l ko'tarib javob berishga shoshadiganlar ko'paydi. Ayniqsa, ustozimizning darsni chiroyli tushuntirishi, uzoq she'rlarni ham doimo yod o'qishi, kitobga qarab gapirmasligi qiziqishimni orttirdi.

– Gazeta-jurnallarni o'qib boradigan bolalarning bahosini oshiramiz, – dedi bir kuni. – Faqat bitta savol beraman-da, qanday o'qiganlaringni bilib olaman.

Hammamiz gazeta-jurnallarni o'qishga kirishdik. Sinfimizga yangi kelgan Sardor fanlardan yaxshi o'qirdi-yu... bizlarga qo'shilib ketolmasdi. Hatto adabiyot o'qituvchimiz ham hayron qolar, savoliga javob ololmasdi. Hammadan chiroyli kiyinadigan, otasi har kuni maktabga mashinada olib keladigan Sardorga havasimiz kelardi...

– Kasalmikin, nimaga buncha g'amgin, – o'qituvchilarimiz u haqda gaplashayotganini eshitib qoldim.

U hech kimdan hech narsa qizg'anmas, nima kerak bo'lsa, albatta, topib kelardi. Kamgap, tortinchoq va indamas edi.

Sinfimizdagi o'quvchilarning hozirjavobligi, topshiriqlarni astoydil bajarishga kirishganidan ona tili va adabiyot o'qituvchimiz xursand bo'ldi.

– Bolalar, hozir sinfdan tashqari dars, – dedi o‘qituvchimiz boshidagi do‘ppisini qayta kiyarkan. – Ism-familiyalarini qo‘ymasdan insho yozamiz. Doskaga: Mavzu – „Bizning oila“ deb yozdi-da, ta’kidlab qo‘ydi: – „Kimga havasingiz keladi? Baxt nima?“ shular haqida yozsangiz ham bo‘ladi.

Sinfdoshlarim bir zumda insho yozishga kirishdi. Sardor esa uzo-oq o‘ylanib o‘tirdi. So‘ng yoza boshladi...

– Sardor ulgurolmadi, – dedim to‘satdan. U menga qarab qo‘ydi-da, inshosini uzatib yubordi. Ko‘nglim g‘ash bo‘ldi. „Hammaga yaxshilik qiladi. Biz esa unga yordam berolmadik“. Shu o‘y bilan tong otdi.

Dars boshlandi.

– Yigirma yetti inshodan bittasini ajratib oldim, – dedi o‘qituvchimiz.

– O‘qiylik, o‘qiylik, – dedi bolalar.

„Bizning oila katta emas. Ota-onam, men va ukam. Oyim bilan dadam hamisha ishda. Uy yumushlari ukam ikkimizga. Oyimning kayfiyati yaxshi bo‘lsin deb, aytganlarini o‘zim bajarib qo‘yaman. Ukam televizor ko‘radi. Meni esa ko‘proq kitob o‘qigim keladi. Uyimizda kitoblarimiz ko‘p. Ular ota-onamniki. Yaxshi, ahil oilalar haqidagi sahifalarni qayta-qayta o‘qiyman. Janjalni eshitsam quloqlarimni berkitib olaman. Bobom bilan buvimning oldiga ketib qolgim keladi. Ularni judayam tez sog‘inib qolaman. Dunyodagi eng baxtli bola – ota-onasi urishmaydigan bola bo‘lsa kerak. Mening ularga havasim keladi“.

Sinf jim bo‘lib qoldi. Qayrilib o‘qilgan varaqqa ko‘zim tushdi. To‘q osmonrang siyohli husnixat – partadoshim Sardorniki edi.

## MEN BAHORNI KO'RDIM

– Quyoshga qaragan bolaning ko'zlari qamashdi. Mo'jiza ro'y berdi. Qachon? Qachonligini bilmay qoldi. Bahor qadam tashladi. Odimlari ildamladi. Qayerdan? Uni ham anglolmadi. Shamol ko'klam ko'kning isini yoydi. O'ng-u so'lni xushbo'ylar tutdi.

Sirli hodisalar makoni fasllarning uchrashuv manzili bo'ldi. Toliqqan qish ikki kunini bahorga hadya etdi. Shunda bahor suratining, siyratining andozasi bichildi.

Men unda bahorni ko'rdim.

Kunning yorug' nuri zumda shabboda bilan o'ynashadi. Shamolga aylanadi. Bahorning darakchisi – yomg'irning isi keladi, keyin shiviri, asta ovozi eshitiladi: chak...chak...chak... U to'satdan hayqiriqqa aylanadi. Bu bahorning tug'ilishi bo'ladi.

Bahor onam kaftlaridan uchirgan palaponga o'xshaydi. U qanot qoqib ko'tarilgani sari oqqushlarga, turnalarga aylanayotgandek. Nafis ro'molining nilufar gullari suv yuzidagidek nazokat bilan tebranib turadi. Bahor ko'ylagi ning qatimlari onamning choklaridek tanish... Uni onam tikdimikin, gullarini onam to'qidimikan?! Ranglari tiniq, betakror. Har yonga termulsang, ko'zing mo'jizaga to'qnashadi. Senga har soniya peshvoz chiqayotgan bahorni ko'rasan.

Qushlar simyog'ochlarga halinchak soladi. Epkinlar ularni allalaydi. Bahorning beshigiga gul-u atri belanadi. Ko'klam ohorli ko'ylagini egniga iladi. Dala-yu qir maysalari bir nasim bilan tebranadi. Ular bag'rilarida ko'z ochayotgan lolaqizg'aldoqlarni sog'inib, yuzlarini silab qarshi oladi.

Faslning chehrasi oydinlashadi. Oftobga yuzingni tutsang, u senga qo'lini beradi.

Oy bilan suhbat qurging keladi: samoning chiroqlari quyushadi.

Onang bilan sirlashgning keladi. Onaning bag'ri olamning bag'ridan-da kengayib ketadi.

Bolajon u kengliklarni sovg'asi bilan to'ldirgisi keladi. Necha kundan buyon yasayotgan qog'oz gullari boychechag-u lolalardan, bog'cha-yu maktabdagi xonaki gullardan chiroyliga o'xshaydi. Uni qayta-qayta ko'zdan kechiradi, tezroq bayram kelishini, buvisi-yu onasiga sovg'a qilishini orziqib kutardi.

O'sha kuni u orzulagandan ham boshqacha bo'ldi: buvisi uzoq duo qildi. Oyisi esa sovg'ani uyning to'ridagi guldonga solib qo'ydi. „Bolamning sovg'asi, bolaginamning o'zi yasagan-a“, deb uni qayta-qayta bag'riga bosdi. Bola quvonchdan hovliga yugurdi-yu, tumshug'ida maysa tutgan kichkinagina kabutarga ko'zi tushdi.


– Qaranglar, tezroq kelinglar, – dedi u xonaga qarab, – qushcha ham onasiga sovg'a olibdi.

Pirr etgan ovoz eshitilib, to'da qushlar ko'tarildi.

– Ana endi ular oyilarini tabriklagani ketishdi... – bola qo'li bilan osmonga ishora qildi.

Uydan chiqqanlarning chehrasiga tabassum yugurdi.

Bahor quyoshining tafti qizardi.





# LOLA O'G'RISI

## *Hikoya*

Bahorning yomg'irli kunlari uzayib ketdi. Kurtaklar bo'rtgancha qotib qolganga o'xshaydi.

– Sovuq urdimikan, nimaga barg yozmayapti? – Akam onamni savolga tutadi.

– Yo'q, bolam, – deydi buvim, – sovuq uradigan paytdan o'tdi. Endi oftobning qaynog'i unga malham bo'ladi, kuch beradi. Issiq kerak.

– Issiq bo'lsa lolalar ham ochiladi-a? – singlim ko'zlarini pирpiratgancha hammaga bir-bir qarab qo'yadi.

– Albatta...

– Ur-ree... keyin lola sayliga chiqamiz.

Chindan ham quyoshni rosayam sog'indik.

Kun sanaymiz. Sovuq ko'rpaning ichiga ham berkinib olganga o'xshaydi. Uxlashdan charchaysan.

Har bahor dadam bizlarni aravali mototsiklida lola terishga olib chiqadi. Uni joyidan uzish boshqacha. Quchoqlarimiz to'lguncha teramiz-da, yo'lda qo'l silkigan bolalarga uzatamiz. O'sha kunning kelishi uzoqlab ketganga o'xshadi. Har kuni so'raymiz. Aprelning o'rtalari edi. Dadam tushdan so'ng lola sayliga borishimizni aytdi. Xursand bo'lgancha kiyimlarimizni taxlay boshladik. Onam tuguncha tutqazarkan:

– Yana ochqab qolmanglar, sovuq, dala joy ishtahani ochadi, – dedi. Aravachaga joylashib o'tirdik. Onam yupqa ko'rpa bilan yelkalarimizni yopib qo'ydi: – Shamollab qolmanglar.

Yo'lga tushdik. Har yili qirga yaqinlashganimiz sari qizg'ish, targ'il lolalar ko'zga tashlanardi. Qancha ichkarilasak ham birorta lola ko'rinmadi.

Dadam mototsiklni loy yo'lning bir chekkasida qoldirarkan:

– Uzoqlab ketmanglar, yovvoyi cho'chqalar yuradi, – dedi.

Akalarim yugurib-yugurib, olislab ketganini bilmay qoldik. Singlim, ukam uchchalamiz birortayam lola topolmadik... Kech tusha boshladi. Dadam qo'llarini og'ziga karnay qilganча akalarimni chaqira boshladi. Javob bo'lmadi. Xavotirimiz oshdi. Shu payt chiyillaganga o'xshash uzuq-yuluq ovoz eshitildi.

– Yovvoyi cho'chqaga duch keldimikan?.. – Ular o'ziga o'zi gapirardi. Dadamning rangi oqardi, – sizlar mototsiklda o'tirib turinglar, – deganча yugurib ketdi. Keyin uzoqdan qo'l silkigan qora ko'rindi. Dadam o'sha tomonga burildi, ko'p o'tmay akalarim yuzlari qizargan, boshini egganча biz tomon kelayotganini ko'rdik.

– Nima bo'ldiykin?.. – deyman o'zimga.

– Kap-katta bo'lib bitta lolani talashganini qara bularni?! Men yovvoyi cho'chqaga uchrabsizlar, deb o'ylabman, – dadamning qattiq asabiylashgani va qo'rqqani ko'rinib turardi.

Dadam mototsiklni o't oldirmay akalarimga itarishni buyurdi. Bir dona lola solingan xaltachani bizlarga tutqazdi. Loy yo'lakdan yurish qiyin, kun sovuq bo'lsa ham akalarim bir zumda terlab ketgan edi. Katta yo'lga yaqin qolganda akalarim qatori bola bizni ko'rib eshagidan tushdi.

– Amaki, lola kerakmasmi? – dedi.

– Qanча bor o'zi? – Dadam bizlarga qaradi.

– Xohlaganingizча... – u xurjunga chelak solinib, unga lola to'ldirilgan eshagini yetaklab keldi.

– Hammasini olaman... – biz bolalar bir-birimizga qaradik. Xurjundagi lolalar mototsiklga ortildi. Hech birimiz quvonmadik. Singlim xaltadagi bittagina lolani avaylab bag'riga bosdi.

Dadam mototsiklni endi o't oldirmoqchi edi, kichik ukam:  
– Dada, uning lolasi kerakmas, u lola og'risi ekan, – deya yig'lab yubordi.

## QISH KELTIRGAN BOLALIK

Qish boshqacha-da. Qor yog'a boshlasa qarsak chalib sakrayman. Yerga yuqib ulgurmagan qorga barmog'im bilan yozgim kelaveradi: – Salom, qor! Salom, yangi yil!

Biz seni sog'indik.

Xuddi qor bilan qo'l berib ko'rishgandek bo'laman. Derazadan kuzatib turgan buvim: – Tez, uyga kir, – deb qo'li bilan imlaydi, – shamollab qolasan.

Buvim ikkimiz yangi yilga tayyorgarlik ko'ramiz. Qanday qilibmi? Hammaga sovg'a olamiz. Oyim – o'qituvchi. Ularga doim eng yaxshi kitob tanlaymiz Zafar va Jasurga, hatto dadamga shirinliklar olamiz. Sovg'a tarqatishni dadamdan boshlaymiz. Ular meni ona qizim, deb erkalaydi. Keyin



she'rlar aytamiz. Dadam bolaligimni ko'p eslaydi. Buvim goh kulib, goh ko'zlari namlanadi.

–Vaqt yugurik, bolam, – deydi.

Ukalarim bilan buvimni savolga tutamiz: – Nima deganingiz bu? Vaqtning yugurayotganini hech qachon ko'rmaganmiz-ku...

– Katta bo'lsangiz ko'rasiz, – buvim chiroyli jilmayadi.

– Qacho-on katta bo'lamiz. Aytaqoling...

– Qa-ni... – dadamning ovozidan hammamiz o'rnimizni topamiz.

Dadam bolaligida quyon bo'lganini, u kiyimni buvim o'zlari tikib berganini ko'p eslaydi.

– Shu kiyimni yaqingacha saqlardim-a. – Yangi hovliga ko'chayotganda yo'qotdim-qo'ydim...

– Quyon bo'lganimda, o'rtoqlarimning havasi kelgan. Hech birida yo'q edi-da, – derdi dadam. – Ayniqsa, quloqlarimni ushlab-ushlab ko'rishardi...

Quyon kiyimini buvim bilan qidirmagan joyimiz qolmadi. Archa, archa o'yinchoqlari solingan qutilar. Dala hovliga jo'natiladigan kiyimlarni ham ko'zdan kechirdik. Yo'q!

Yoz edi. Buvim beshikning asboblarini quyoshga tutib, o'rab qo'yishimizni aytdi. Men odatdagidek yordamlashmoqchi bo'ldim.

– Voy, voy, o'zim aylanay, – buvim oq surp xaltachani tutganча quvonardi, – buni qara-ya... Qo'yib, xayolimdan ko'tarilganmi, deyman.

– Nahotki shuni dadam kiygan? Kichkinaligini-i... Jasurga ham to'g'ri kelmaydi, – dedim... – Dadam xursand bo'ladi endi...

– Yo'q, bolam, buni sovg'a qilamiz.

Uni hech kimga ko'rsatmasdan yuvib, quritdik. Dazmollab xaltachaga soldik-da, bekitib qo'ydik. Aytgim kelib ketardi. Lekin buvim bilan kelishganmiz. Yangi yilni rosayam kutdim.

Mana, archa atrofidamiz. Onam buvimni tabrikladi. So'ng buvim sehrli qopchasini oldi. Hamma sovg'a olishga tayyor. Nimagadir avval onamni, keyin ukalarimni qutlab duo qildi.

– Qani endi ko'zlaringni yuminglar-chi, – buvim quyon kiyimini ikki yelkasidan tutib turardi.

Dadam buvimni bag'riga bosdi. Uni Jasurga kiygazishdi. Xuddi o'zinikidek, lop-loyiq. U sakrab-sakrab archani aylandi.

Dadam undan ko'zini uzmas, buvimni esa ko'zlari nam bo'lsada, kulib qarsak chalardi.

## **O'N BARMOG'IM – O'N HUNAR**

Xushxabarning qanoti qizaloqning qo'llaridan tutadi. Qizaloq „oyoqlarini qo'llariga olib“ yuguradi: „Oyi, oyijon, uzo-oqdan laylakni ko'rdim. Shunaqangi oppoq, chiroyliki... Yuring, yuraqoling sizga ham ko'rsataman“.

– E-e, qizalog'im-ey, u laylaklarning in qurib, bolalarini uchirma qilganini ko'rib ulg'ayganman, – deydi ona qizchanning jamalak sochlarini silab. – Yaqindagina edi, mahallamiz simyog'ochidagi uyasi tagida turib qo'shiq aytganimiz:

Laylak keldi, yoz bo'ldi,

Qanoti qog'oz bo'ldi...

– Laylakning qanoti qog'ozga aylanadimi-a?

– hayratli ko'zlar mo'jizaga duch kelgandek quvnab ketadi. – Unga xat yozsa bo'ladimi? Bu laylaklar qishloqqa – buvimning mahallasiga ham boradimi?

Qizaloqning savollari tunganmas edi...

Bolajonlar ta'tilni orziqib kutishardi. Biz esa buvimning ertaklarini sog'inardik. Maktab tugashi bilan qishloqqa otlanamiz. U yerdagi kunlarni ham, odamlarni ham yaxshi ko'rib ketamiz. Ular boshqacha-da. Kunlar ham uzun – buvimning nasihatlaridek... Eshitganimiz sari eshitgimiz keladi.

Ayniqsa, ertak aytishdan oldin: „Endi katta bo'lib qoldinglar, – deb gap boshlaydi, – yaxshi o'qishinglardan xursandman. Ammo... olim bo'lsang ham hunarli bo'l. Hunar – zar, deyishadi. Aslida zardan a'lo. Yigit kishiga qirq hunar oz bo'lsa, qiz bolaning o'n barmog'i o'n hunarga aylanishi kerak. O'rningdan turdingmi, o'zingga qara, qo'g'irchoqdek bo'lib ol, soch turmaklashda epli bo'lsang, ishing o'ngidan keladi. Ishingni ko'cha eshikka suv sepishdan boshla – bu o'zbekning ming yildayam o'zgarmaydigan odati. „Yerni yuzini ochsang, diling ochiladi“ deb bejiz aytishmagan. Pazanda bo'l – ro'zg'orga qut-baraka kiradi. Shirin taomdan so'ng shirin xayol, reja tuziladi. O'yli ishning poydevori mustahkamda, bolam. Qo'lga igna tutganning har choki pishiq bo'lar, matosi to'zisada, choki ketmas.

Kashtaning har qatimiga mehringni qo'shib tiksang, ipaklari nurlanar.

Savat to'qishni maromiga yetkazsang har xonadon non yopganda palonchining qo'li gul deb nomingni e'zozlar.

Mo'yqalam tutishga mohir bo'lsang, mo'jiza deganingni qog'ozga muhrla.

Muhrlaganda ham unga jon kirit. Mashqing bo'lsa dutor chert, soz chal, ovozing bo'lsa xirgoyi qil... Zap yoshlarning zamoni bo'ldi. Dunyoning to'rt tomoni bir kunlik yo'l. Harakati bo'lsa hosilini teradi. Yoshlikning bir damini bekor o'tkazma, yelga sovrurma.

Kasbu hunarni ilm-u odob, tarbiya, muomala aziz qiladi. Har ishdagi me'yor olmos qonun, bolam“.

Ertakdan ko'ra buvimning hikoyalari adoqsiz... Har takrorlaganida nimanidir topgandek bo'laveramiz. So'ridagi suhbatlarimiz nihoyalamaydi. Yonboshlarimizga yostiqlik qo'yiladi... Yulduzlar esa yana ham yorqinroq ko'rinadi...

Xayolim bo'linadi – mening ham ertagim bo'lishini, hammaning shunday buvijonisi bo'lishini juda-juda istardim.

## **GULLAR, KITOBLARGA ATALGAN GULLAR**

Men hali maktabga chiqmagan paytlar. Harf o'rganish, ularni qo'shib o'qish qiyin tuyulardi. Qo'shni qizlarning dars tayyorlayotganini ko'rsam, qo'llarimni ayri qilib, ikki yildan keyin o'rganaman, derdim.

Ammo... ko'rganlarim meni sirli dunyoga yetaklab kirdi. Dastalangan gullarga uzoq termulib qolardim. Mo'jiza meni o'z ortidan ergashtirib ketardi. Qishloqning har hovlisida o'sadigan oddiy gullar endi boshqacha edi. Butun mahalla, muallim, deb e'zozlaydigan ayol gullarni dastlab hovlisiga yo'l olardi. Bu hol deyarli tez-tez – gohida kunora, haftaga yetmay takrorlanardi. Atrofdagilar, kutubxonasiga qo'yadi, deganda kutubxona so'zini birinchi marta eshitgandim. Nima gapligini tushunmasdim, tushunolmasdim. Keyin ularni kuzatadigan bo'ldim. Dastalangan gullarni olib, hovlining bir chekkasidagi xonaga asta kirardi. Chiroqni yoqqani kichkinagina romli oynadan ko'zga tashlanardi. Ularning ichkarilaganini sezib xonaga yaqinlashdim. Eshikning g'ichirlab ketishidan cho'chib sekingina mo'raladim-u... og'zim ochilib qoldi. Ishongim kelmasdi... Ka-atta xonaning to'rt devori tokcha qilingan, rang-

barang kitoblar bilan liq to'la edi... Uzoq vaqt engashib qarab turganimdan, boshim qiyshayib qolgan edi. Biznikidagi kitoblarni taxlasam, ikki qo'limning barmoqlaridan salgina ko'p chiqardi... Men endi tez-tez kuzatadigan bo'ldim:

Muallim javon yonidagi shisha, sopol guldonlarni avaylab artib chiqardi. Suvini chelakdan almashtirardi-da gullarini qator solib, maxsus joylarga qo'yardi. Ularga qarab uzo-oq vaqt tabassum qilib, xayol surardi. Meni ularning nimalar haqida o'ylayotgani qiziqtirardi: „Shu kitoblarni hammasini o'qiganmikan? Nimaga kitoblarni buncha yaxshi ko'rarkin? Esida bo'lsa kerak. Men kichkina bo'lsam ham buvimning hamma ertaklarini eslab qolganman-ku... Yana kim bilsin? Savollarimning oxirini topolmasdim...“ Xonani ichiga kirib ko'rishni orzu qilardim. Ammo muallim kichkina bolalarni bu xonaga deyarli kiritmasdi. Mening esa bu yerga tez-tez kelayotganimni sezardi. Bir kuni boshimni silab, kitoblarni yaxshi ko'rasanmi, dedi. Men hali harflarni o'rganmaganman, ertak aytishni bilaman, dedim. Ular qo'limdan ushlab xonaga boshladi. Shunaqangi xursand bo'ldimki, sakragilarim keldi. Kitoblarning hammasini qo'lim bilan ushlasam deyman. Sanashni bilganimda edi, opamga o'xshab sanab tashlardim, deb o'yladim.

Muallim burchakdan bir talay jurnallarni olib menga tutqazdi. Ichidagi suratlar gapirayotganga o'xshardi, yozuvlariga esa tushunmasdim. Shundan keyin harflarni o'rganishga kirishdim... Muallim gul dastalab yurganida ortidan ergashib u xonaga tez-tez kiradigan bo'ldim. Har kirganimda qaysi kitobning qayerda turganini tushuntirardi. Keyin eslasam, ular nafaqat kitoblarni, kutubxonasining xaritasini yod bilarkan.

Men muallim bilan o'rtoq bo'lib qolgandim. Ularning guldonida to'rt faslda ham gullar arimasdi. Muallim keksayib



qolgan bo'lsa-da, juda ko'p o'qir, bir chetdagi xontaxtada nimalarnidir yozaverardi...

– Gullarni nimaga kitoblarning yonlariga qo'yib – qo'yaverasiz? – so'radim men.

– Dunyodagi hamma gullar kitoblarga atalgan, – kulib qo'ydi ular.

Men u so'zga tushunmadim. Bir kuni shahardan ko'p odamlar keldi. Mehmonlar muallimni juda hurmat qilarkan. Keyin bilsam... qishlog'imiz muallimi katta olim ekan. Kelganlar esa ularning shogirdlari ekan...

Gullarning kitoblarga atalganini tushunganday bo'ldim...

## **MEN USTOZ BO'LMOQCHIMAN**

Men bog'chaga qachon borganimni eslay olmayman. Ammo uyda har kuni ukamga, singlimga bog'cha opalik qilardim. Ular aytganlarimni bajarmasa – urishishga shoshmasdim – bog'cha opamizdek. O'zim ularga o'yinchoqlarni yig'ishtirishni, xonani tartibga solishni ko'rsatardim.

Gohida o'zimni jiddiy tutib ko'zlarim bilan „gapirardim“: shunda ukam mashina-yu koptoklarini, singlim esa qo'g'irchoqlarini joyiga bir zumda taxlab qo'yardi. Onamning „o'zim o'rgilay aqlligimdan“ deya erkalashidan kattarib qol-gandek bo'lardim. „Qaniydi, bog'cha opa bo'lib qolsam“, deya pichirlab aytganlarim aytgan edi. Bizning bog'cha opa hammadan yaxshi edi. Men ham ularga o'xshashni xohlardim.

\* \* \*

Hali o'qish yozishni bilmasam-da, har kuni radioning yonidan ketmay ertak tinglardim. O'y-xayollarimga ham ertaklar kirib kelardi. Maktabga chiqishni, ustozning qo'llaridan ushlab yurishni shunchalar orzulardimki...

Mahallaning to'rt qizidan faqat mening yoshim maktabga yetmagani alam qilardi. Endi yana bir yil kutish emas – o'rtloqlarimdan qolganim, ustozning saboqlariga – darslarga bir yil kechikkanligimdan yig'lardim.

Maktab uyimizga yaqin edi. Men o'qituvchiga o'xshab kiyinishni, ularga o'xshab chiroyli gapirishni, jurnal ko'tarib, sumka tutishlarni ham yoqtirardim.

Yilning o'tishi shunchalar uzo-o-oqligini o'shanda tushunganday bo'lganman...

Kutganim sinfxona va ustoz kutganimdan a'lo edi. Maktabga hammadan oldin borardim. Sinfdooshlarim xonaga kirishga shoshardi, men esa ustozning qalbiga kirgim kelardi. Onamdek, opamdek olib suhbatlashishni istardim.

Men xayolning orqasidan yo'lga tushardim. Xayolim meni yetaklardi – ustozim kabi. Ustozning izlaridan qadamlardim: yomg'irda, qorda, gullar ko'rpa bo'lib zaminning yelkasiga yopilganida.

O'ylarim orzularimga qo'l tutdi. Dars o'tish hayajonlari hanuz meni tark etmaydi. Izlanish va intilishlarni bir kun ham to'xtatish mumkinmi...

Yo'q! Vaqt o'tdi... Meni ustoz deyishadi bolajonlar! Endi shunga munosib bo'lish – daftarlarni ko'zdan kechirish, baholash, har navnihol ko'nglini katta qalb bilan asta taqillatish va undan joy olish yillarni yetaklab ketarkan.

Sinfxona: farzandimdek, aziz bolajonlar bir-biridan hozirjavob.

– Kim bo'lmoqchisiz? Shu haqda yozing, – deyman.

– Men ustoz bo'lmoqchiman, – deya qator ko'tarilgan qo'llar mehnatlarim mashaqqatlarini zumda unuttiradi. Qulog'im ostida shu so'zlar jaranglayveradi:

Men ustoz bo'lmoqchiman.

## GULNING ONASI CHIROYLIMI?

Mening oyim – o‘qituvchi. Buvim – shifokor. Buvimning ham onasi bor – faqat kampir.

– Oyijon, kampirlarning ham onasi bo‘ladimi?

– Ha, bolam.

– Daraxtlarniyam, qushlarniyammi?

– Albatta, jamiki jonivorlarniyam. Yaralgan hamma mavjudotning onasi bo‘ladi...

– Eng chiroyli kimning onasi?

– Bilmasam, bolam.

– Gulniyam onasi bormi?

– Ha bolam, bor-da onasi.

– U juda-juda chiroylimi?

– Judayam.

– Sizdan hammi?

Onam jilmayib, hech nima demadi.

– Yo‘q, ishonmayman... eng chiroylisiyam sizdek emas... Sizdan keyin, – barmoqlarimni ko‘rsatdim, – ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi ular...

Birinchi faqat – Siz... siz...

Oyim barmoqlarimni mahkam ushladi. Kaftlarimni birlashtirib, qo‘limni siladi.

– Qish uyquga ketdi. Bahorning ko‘zi ochildi, – buvimning ovozi eshitildi. U gohida o‘zi bilan o‘zi gaplashadi. Shunda oldiga yugurib boraman.

– Kurtaklarni qara bolam, gulga aylanaman, deb turibdi.


– Voy, daraxtlar ham gapiradimi?

– Ah bolam-a, gapirish nima bo‘pti-ya... Ko‘klam kuyini chalsa, gullar raqsga tushadi.

Buvingning gapi tugashi bilan onam qo'limdan tutdi:

– Bo'laqol, kech qolamiz.

Eshikda bog'cha opam kutib oldi.



– Tezroq kiraqol, – deb kiyimimni almashtirishga yordamlashdi.

– Hamma o'ziga sherik tanladi. Sen ham o'ylab tur. Birozdan keyin yangi raqs boshlaymiz.

Qarasam, o'rtoqlarim qo'llarini ushlab olishgan: Aziza bilan Furqat, Artur bilan Sveta, Mohinur bilan Shamshod... hammaning sherigi bor. Bog'cha opamiz menga qaradi.

– Men bahor bilan raqs tushsam maylimi? – dedim. Ular jilmaydi. Xona burchagidagi gul to'la savatni ko'tardim. Musiqachi opamiz pianinoga qo'llarini qo'ydi. Keyin gulsavatni ko'targanicha aylandim. Hamma qarsak chaldi.

## TABIB QUSHLAR

– Buvijon, eshiting, qushlarning ovozi, uchyapti,  
– Nastarin ko'rpacha qaviydigan buvisining yelkasidan quchdi.

– Bolam, qushlarning ovozi emas, o'zi uchadi.  
– Yo'q-yo'q, – qizcha qo'llarini qulog'iga karnay qildi,– ana yaqinlashyapti ovozi...

Kampir ko'zoynagini bir olib taqdi-da, o'rnidan turdi. Quyosh botayotgan tomonga o'girildi. Qo'lini peshanasida ayvon qildi: shafaq ichidan qushlar galasi uchib chiqayotganga o'xshardi. Avval ular katta shar shakliga kirdi.

Keyin choynakning burnidek tumshuq turtib chiqdi. Va bu qora yo'rg'alay boshladi. Qushlarning ovozi endi yaqinlashdi. Qanotlarini yelpig'ichdek silkigani ham eshitildi. Endi ular uch-to'rt qatordan tizilishdi.

– Ha-a, bolam, qushlar karvoni bu. Qushlar endi tabibligini qiladi,– buvim tobora yaqinlashayotgan qushlarga uzoq termuladi.

– Nima deganingiz bu, tushuntirib bering, – deyman buvimga.

– Qushlar zararkunanda hasharotlarni qiradi. Sayrab bog'rog'ni yashnatadi. Kayfiyatni chog' qiladi. Ishingni o'nglaydi. Hamma gap shunda, bolam,– buvim uchib ketayotgan qushlarning hammasi hozir bizning hovliga qo'nadigandek o'tirishga joy topolmaydi. U yoqdan-bu yoqqa yuradi. Men ham xonamning derazalarini asta ochib qo'ydim. Qaniydi, tabib qushlar mening xonamga ham kirs...

## DEVORQALAM

Ifora qalamga yaqinlashadi. Qalamni olib devorga surat chizishga shaylanadi.

– Mana hozir ka-atta shar yasab beraman, xo'pmi?

– Qizalog'im, bu daftarga yozadigan qalam-ku. Nima qilyapsan? – buvi nabirasining qo'lidan qalamni oladi.

– Unda menga devorqalam bering, devorga yozadigan, xo'pmi?

Buvijon o'yga toladi.

## USTOZNING NONI

Bizning ustoz hech kimga o'xshamaydi. Yoshi... buvimdan kichkina, oyimdan katta. Sochini silliq tarab, turmaklab oladi. Kiyinishi ham o'ziga yarashadi.

Mahallamizdagi bolalar ustozni yaxshi ko'radi. Chunki muallim hammamizga ingliz tilini o'rgatadi-da. Ustoz maktabdan qaytishini kutamiz. Uy ishlarini qilib ulgurmasidan, biz ham hovlisiga yetib boramiz.

Har doim non yopib bo'lishiga kirardik. Bu safar oxirgi nonni tandirdan uzayotgan ekan... Darrov qo'limizga kulchalarni tutqazdi. Non issiq bo'lsa ham qo'lim kuymaydi. Qornimiz to'q edi. Ammo kulchani yegimiz kelib ketdi. Muallim bizlarni kuzatib turardi.

– Ustoz, – dedi Ismoil, – dunyodagi eng shirin non – siz yopgan non...

Muallimning ko'zlari namlandi. Kelib Ismoilni bag'riga bosarkan:

– Dunyodagi eng aqlli o‘quvchilar – sizlar, – deya hammamizni quchog‘iga oldi.

Ular non yopgani uchunmi yo... bag‘ri judayam issiq edi.

Ustozning noni! Dunyodagi hamma nonni bo‘laklasang kamayib boradi. Ustozning noni esa bo‘laklaganing sari – zumda butunlanib boraveradi.

U eng oddiy Baraka rizqi! U umring bo‘yi nasibangni butun qiladi!



# UDDABURON OLMAXON

## *Ertak*

Qalin qor yog'ib, o'rmon ham, jonivorlar ham uyquga ketibdi. Ko'zlarini ochsaaa...

Yangi yilga bir kun qolgan emish. Shoshib qolishibdi: Yangi yilni kutib olishga kim chiqadi? Yana, eng baland tog'ning tepasidagi eng baland archaga! Muhimi, shartni bajarish kerak: archa uchidagi taqvim – yilnomaning so'nggi varag'ini olishga ulgurish kerak. Bo'lmasa o'rmonga yangi yil kirib kelmaydi.

Hamma shunday tashvishga tushibdi. Ular uzoooq uxlab qolishganiga ming pushaymon bo'libdi. Darhol ro'yxat tuzishibdi: Ayiq, Tulki, Quyon, Maymun, Mushuk... Va nihoyat, olmaxonni ham yoqtirmaygina navbatga qo'yishibdi.

– Tezroq ulgurishimiz kerak. Tezroq! – debdi jonivorlar bir-biriga.

Ayiq tepaga chiqishni boshlabdi-yu, zumda qaytib tushibdi. Tulki u yon-bu yonga o'tib, nimadir demoqchi bo'libdi. Ammo eplolmayman, deyishdan uyalib, sir boy bergisi kelmabdi.

– Bir, ikki, uch, to'rt, – hali besh aytilmasdan gupillab yiqilgan ovoz eshitilibdi.

– Boshim aylandi, – debdi Tulki, – mazam yo'q edi.

Maymun qo'llarini uzatib, shoxga tirmasha boshlabdi. Hamma „zo'r-zo'r“ deya qiyqiribdi. Ammo archaning shoxlari ingichkalashgan joydan bir qarich ham o'tolmabdi. Quyon bilan mushuk ulardan ancha balandlabdi. Lekin ko'zlagan joyga chiqolmabdi. Kun qoraygandan-qorayibdi.

Navbat Olmaxonga kelibdi.



Qattiq izg'irin essa, ehtiyot bo'l, – debdi Tulki. – U yoq-  
bu yoqqa uchib ketsang, seni qidirib yurmaylik.

Olmaxon jajji qo'llarini puflab isitganday bo'libdi. So'ng bir  
sakrab archa shoxlariga tirmashibdi.

Yana sanoq boshlanibdi: yetti deganda Olmaxon olislab,  
marraga yetganday ko'rinibdi. Hamma qarsak chalib  
yuboribdi. Ammo Olmaxon ko'zga ko'rinmay qolibdi. Ular  
qo'llarini karnay qilib Olmaxonni chaqiribdi.

Endi gapni Olmaxondan eshiting: u marraga yetib, soatiga  
qarasa, hali vaqt bor emish: balandlikdan tog'-u o'rmonni  
kuzatish mazza ekan, deb atrofga qarabdi. Qizil chiroq  
ko'ringanday bo'libdi.

U qizil qalpoq kiyib, qop orqalagan Qorbobo ekan. Yonida  
zangor kiyimdagi Qorqiz. Qo'lidagi kitob yaltirab, raqamlar  
jilolanarmish. Olmaxon uni yaqindan ko'rgisi kelibdi. Hali  
ulguraman, deb archa shoxlarini zinapoya qilib, ular tomon  
shoshibdi. Salom beribdi. Qarasa, yaltirayotgan raqamlar  
– Yangi yilnoma ekan. Uni silabdi. Shunda Qorbobo bilan  
Qorqiz uni Olmaxonga sovg'a qilibdi.

U yana soatiga qarabdi, ulgurish kerak. Kelgan yo'lidan  
iziga qaytibdi, eski yilnomaning so'nggi varag'ini uzishi  
bilan bong urilibdi. Shunda archaga yangi taqvimni ilibdi.  
Hammayoq yorishib ketganday bo'libdi. Jonivorlar hang-u-  
mang bo'lib qolibdi. Olmaxon chaqqonlik bilan pastga tushibdi.  
Ular uddaburon do'sti bilan quchoqlashib ko'rishishibdi.  
Mo'jizakor o'rmon ham uyqusini yo'qotib, qarsak chalarmish.



# BAHORNING UKASI

## *Hikoya*

– Endi she'r o'rganamiz, – dedi buvisi Mastona va Nodirbekka. Ular qish haqida she'r boshladi.

– Yo'q, yo'q bolam, – buvi boshini qimirlatdi, – yaqinda bahor keladi. Endi ko'klam haqida she'r yodlaymiz.

– Buvijon, bahor qayerga yetdi? – so'radi Mastona.

– Qayergaligini bilmadim-u... u yo'lda. Ha demay kelib qoladi.

– Uning ukasi bormi?

– Bor-da, bolam.

– U ukasini yaxshi ko'radimi?

– Albatta!

– Bahor to'polon qilmasdan keladimi? Ukasini uyg'otib yubormaydimi?

O'ylanib qolgan buvining chehrasiga tabassum yugurdi. Nabiralarini bag'riga bosdi.

## **MEN KIMGA O'XSHAYMAN?**

– Hamma mendan kimga o'xshaysan, kimga o'xshaysan, deb so'rayverishadi, – qizaloq kulib qo'ydi.

– Adamga-da. Faqat qo'llarim oyimga o'xshaydi. Ovqat qilaman, uy tozalayman. Katta bo'lsam, oyimdek do'xtir bo'laman-da, buvijonimni tuzataman, – u havas bilan barmoqlariga termuldi.

## CHIROQNING UYI QAYERDA?

Ayvonda buvisi bilan o'ynayotgan nabiralalar chiroqni yoqib-o'chira boshladi.

– Kunduzi chiroqni yoqmaydi, – dedi buvisi. – Qaranglar, hamma yoq yorug'.

– Quyosh kunduzning chirog'imi?

– Dono bolam, o'zing bilasan-da. Agar chiroqni keraksiz narsaga kunduzi yoqaversang, u xafa bo'lib ketib qoladi. Keragida kechqurun yoqish kerak.

– Ayting, qayerga ketadi?

– Uyiga-da, bolam.

– Uyi qayerda?

– Uyimi, senga aytsam, kaaaaaatta-katta suv omborlarida.

– U suvning uyimasmi?

– Suvning ham uyi, chiroqning ham. O'sha katta to'g'onlardan elektr olinadi. U hammamizning uyimizni yoritadi. Tushudinglarmi?

Nodirbek yugurib borib, oqayotgan suvni burab:

– Yana chiroq oqib ketmasin, – dedi buvisiga.

## DONO ILON

*Ertak*

Bu ertakni menga bir paytlar buvim aytib bergandi. Hamma bolalardek hayajonimni yashirolmagandim. Bugun o'sha hayratni sizlarning ko'zingizda ko'rgim keladi.

Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan. Qadim o'tgan zamonda tog' etaklariga joylashgan bir dehqon oilasi yasharkan. Ular tongdan shomgacha dalada mehnat qilar, kun qorongisida

uyiga qaytisharkan. Ovqatlanib bo'lishgach esa supaga yotib uyquga ketisharkan. Bir kuni tunda vishillagan ovozdan avval ona, keyin ota uyg'onib ketibdi. Supa atrofida sudralgan sharpalar ko'rinibdi. Asta chiroqni yoqib qarashsa ilonlar to'dasi emish.

– Sekinroq, debdi ota, – bolalarni uyg'otib yuborasan, ular cho'chishadi.

Bollar birin-krtin turishib, bo'lgan voqeadan xabardor bo'lishibdi.

– Ularni shartta o'ldirish kerak, – debdi kichik o'g'il.

– Yo'q, bolam, – debdi otasi, – ilon qasoskor bo'ladi. Bit-tasini o'ldirsang, sheriklari kelib qasd oladi. Oqlik sepib qo'y-sak, o'z oyog'l bilan ketadi.

Ertasiga katta o'g'il o'tinxonaga kiribdi-yu, bir burchakda kulcha bo'lib yotgan ilonga ko'zi tushibdi. Kurakcha bilan ush-lab qopga solibdi: „O'ldirish kerak, kichkinagina ekan“. Otasining gapi xayolida aylanib, fikridan qaytibdi. Qopning ustidan chelak va tog'orani to'nkarib, ustidan tosh bostirib, o'tinxonada qoldiribdi. Kech kirmasdan katta bir ilon supa atrofida aylanib, o'choqxona tarafga o'tib ketibdi. O'g'il nima qilish kerak, deb turganda ilon qaytibdi-da, ishkonga ko'tarilibdi. So'riga ilingan sutchelakka yaqinlashibdi. Shunda yana vishillagan ovoz eshitilibdi. Bola qo'rqib ketibdi. Shu payt ostonada onasi ko'rinibdi. O'g'il bo'lgan voqeani aytib beribdi. Zudlik bilan ilon bolasini qo'yib yuborishibdi. So'ridan tushayotgan ilon bir zum to'xtabdi-da, yana ortiga qaytibdi. Chelakka yaqinlashibdi. Dumi bilan chelakni shunday uribdiki, ilgak uzilib, chelak tushib ketibdi. Sut yer bilan bitta bo'libdi.

Ona ilon bolasi bilan sudralib, kovakdan ko'chaga chiqib ketibdi.

Qani ayting-chi bolalar, ilon nega bunday qildi?

## **TABIATNING NAFASI**

– Hamma narsalarning joni bor, – dedi o‘qituvchimiz. Ba’zi o‘rtoqlarim kulishdi. Biz esa tajriba o‘tkazardik: suvning oqishi, daraxtlarning tebranishi, shamolning yelishi, yomg‘irning ovozi va yerning nafas olishini eshitardik... Quloq solsangiz, ular odamlarga o‘xshab ketarkan.

## **BUVIMNING SAYOHATI**

Siz sayohatni yaxshi ko‘rasizmi?

– Albatta-da, – deydi hamma. Reja tuzishga kirishamiz: Qayerga boramiz? Shaharlarning nomini yozamiz. Dadam, oyim, akam va opam fikrlarini aytadi. Men ham. Bobom bilan buvim odatdagidek miyig‘ida kulib qo‘yishadi.

– Bizning sayohat tug‘ilgan qishlog‘imizga-da, – deyishadi. Buvim ko‘zlari quvnab sandiqlarni ochadi. Qarindoshlariga sovg‘a tayyorlaydi.

Oilamiz bilan xorij safariga otlansak ham buncha hayajonlanmaymiz.

– Har kimni sog‘insang, chaqirib ko‘rsang bo‘lar: ota-onang, bolang, do‘st-u birodaring, – deydi buvim.

– Ammo qancha qudrating bo‘lmasin, yutning sog‘inchiga o‘zing yo‘l olasan. Xulosani bobom chiqaradi. Buvim yana tug‘ilgan qishlog‘iga yo‘l oladi.

## MEHRIMOHIMNING HIKOYASI

Buvimni juda yaxshi ko'ramiz. Ayniqsa, shirinlik ulashib, ertak aytganlarida. Yana-chi, to'g'ri so'zning mukofoti bor, deydi. Bilmasdan xato ish qilganimizni aytsak, qand bilan siylaydilari. Rost gap umrni uzun qiladi, deydi. Shundan yolg'on gapirmaymiz. Buvim, ukam uchovimiz bir xonada yotamiz.

Men ikkisining ustini yopib, ko'rpalarini to'g'rilab qo'yaman. Har kuni uyqudan avval ertak tinglaymiz.

– Bugun „Bo'g'irsoq“ni aytib bering, – dedim buvimga.

– Xo'p boladi-da, mening aqllilarim. Sizlar ko'zlaringizni yumib tinglasangiz ertakning ichiga kirasiz, – dedi buvim.

– Qanaqa qilib? – to'rt yoshli ukam Shamshod o'rnidan turib, o'tirib oldi.

– Odam bor vujudi bilan tinglasa, sehrgar voqealarni xayoliga joylab ketadi. Ayniqsa, yangi yil arafasida.

Ukam qovog'ini uygani tungi chiroqda ham ko'rinib turardi.

Xayol surib buvimnin ertak boshlaganini bilmay qolibman, kelgan joyidan quloq tutdim.

– Shunda bo'g'irsoqning oldidan ayiq chiqib qolibdi. Qornim juda och, men seni yeyman, – debdi ayiq.

– Yo'q, buvijon, – Shamshodning ko'zlari katta ochildi, – ayiqning qorni och bo'lsa-a, u asaal yeydi.

– Bu ertak-da, bolam.

– Davomini ayting, – dedim buvimga.

– Bo'g'irsoq yo'lida davom etibdi. Oldidan quyon chiqib qolibdi. „Zap vaqtida uchradning-da bo'g'irsoq. O'lgudek och edim, seni yeb mazza qilaman“, debdi.

– Endi-chi, buvijon, – ukamning uyqusi qochib ketgan edi. – men xafa bo'ldim.

– Nimaga, bolam?

– Axir quyon sabzi yeydi-ku. Siz doim rostini gapiring deysiz. „Bo‘g‘irsoq“ menga yoqmadi. Boshqa ertak aytib bering.

Buvim uzoq payt indamay qoldi. Ukam ertak kutardi. Men esa kimga nima deyishni bilmasdim.

## KO‘ZIMNING ICHIDAGI CHIROQ

*Hikoya*

Men uchinchi sinfda o‘qiyman. Oyim bilan dadamni, ukalarimni yaxshi ko‘raman. Buvim esa hech kimga o‘xshamaydi – hammadan boshqacha. Erkalashlari ham ajoyib: – Chirog‘im meni, – deydi. Birinchi bu gapni eshitganimda xafa bo‘ldim.

– Buvijon, nimaga unaqa deysiz? Axir men chiroqmanmi? Axir... – gapim tugamasdan ular meni bag‘riga bosdi.

– Sen ko‘zimning ichidagi chiroqsan, bolam, – buvim yanayam qattiqroq achomladi. – Shiftdagi chiroq xonaga nur beradi, qalbingdagi mehr ko‘zingga ko‘chadi. Bu – dunyoning oftobidan ham ravshanroq, bilsang, – buvim biroz o‘ylanib, yana gapida davom etdi. – Unda olamning ezguliklari bir tomirga aylanadi.

Buvimning gaplarini eshitdim-u, to‘g‘risi hamasiga ham tushunmadim. Ikki kun o‘tib oromgohga ketadigan bo‘ldim. Bir zumda narsalarimni tayyorladim. Yo‘lga tushdik. Birinchi marotaba uydan olislashim edi. Har muyulishda ortimga qarayman – nimasidir esdan chiqib qolgan odamga o‘xshayman. Oromgohga ham yetib keldik. Juda chiroyli joylar ekan. Tengdoshlarim bilan tezda inoqlashib ketdim. Ammo hafta o‘tmay uyimdakilarni sog‘indim. Ertakdagi Zumraddek

tomga chiqib uyimizni ko'rgim keldi. Qorong'i tushgan payt edi. Eng baland tepalikka ko'tarildim. Miltirab yonayotgan chiroqlarning eng yorug'l uyimiz bo'lib ko'rindi. Shu onda ketib qolgim keldi. Qani qushga aylansam-u... Kunlarni sanab o'tkazdim. Mashina mahallamiz boshidagi ko'chada to'xtadi. Yig'lagim keldi, nimaga, o'zim ham bilmayman. Uyimizning darvozasi ko'rindi. Ko'zimning ichida chiroq yonganday bo'ldi.

## TO'RT O'RTOQ

### *Hikoya*

Biz to'rt o'rtoq – Komil, Asqar, Nabi va men bir mahallada yashaymiz. Hammamiz bitta sinfga chiqishimizni eshitganimda „zo'-o'r“ dedim ovozim boricha. Lekin Komil boshqa sinfga chiqsa ham xafa bo'lmasdik. Mayli.

O'qish boshlandi. Maktab uyimizga yaqin. Biribirimizni chaqirib o'qishga otlanardik. Katta yo'ldan o'tsak bas.

– Meni birinchi chaqiringlar, – dedi Komil qovog'ini uyub.

– Uying ko'chani oxirida-ku, qanday qilib?.. – Asqar unga shartta javob qaytardi.

– Biz teskarimiz-mi, a? – Nabining ham jahli chiqdi.

Endi muyulishda uchrashishga kelishdik. Deyarli har kuni Komilni kutardik. Uning uyi maktabga eng yaqin bo'lsayam kechikishdan charchamasdi. Yana, hech birimizga gapirmay, oldinga o'tib bizdan ilgari sinfga kirardi. U ko'p vaqt o'tmay eng a'lochilardan bo'ldi. Sinfdan bolalar tushunmaganlarini so'rar, bir-biriga yordamlashardi. Komil esa hatto biz o'rtoqlarini gapini ham eshitmaganga olardi.

– Endi u bilan yurmayman, – dedi Asqar.

– Men ham, – suhbatga qo'shildi Nabi. – Endi bilsam, u bizga o'rtoq bo'lmaydi. Nega doim uning aytganini qilish kerak, u esa bizni tinglamaydi.



Men Komilni tashlab ketolmasdim. U yomon emas, faqat judayam qizg'anchiq-da... Yana doim o'zini o'ylaydi. Tushuntirmoqchi bo'lardim, ammo u ko'z qarashi bilan gapimni to'xtatardi. Kitob daftarimni yig'ishtirdim-da, sinfdan chiqdim.

U orqamdan meni chaqirdi. To'xtamadim. Birinchi sinfni tugatganimizda, uning atrofida bittayam o'rtog'i yo'q edi. Yozda oilasi bilan shaharga ko'chib ketishdi. Biz u bilan xayrlashishga ham bormadik. Oradan ikki yil o'tdi... Mahallamiz bolalari birga oromgohga otlandik. Avtobusdan tushayotsak, Komilga ko'zimiz tushdi. Chiroyli bo'lib ketibdi.

– Qara, qadrdon o'rtoqlaring, – dedi Komilning dadasi biz bilan ko'risharkan: – Bir-birlaringdan ajramang, xo'p-mi, – deya menga qaradi.

Xafalashganimiz esimdan chiqqandek bo'ldi. Dasturxon tuzadik – buvimiz, oyimiz pishirib bergan narsalar bilan choy ichdik. Komilni har kuni mehmon qildik. U hech narsa olib kelmagan shekilli... keyingi kunlari dasturxonga chaqirsak „yo'o'q“ deydigan bo'ldi. Komil oromgohda ham faol edi. Rosti unga havasim keldi. Hozir ham jamoat ishi bilan band. Yotoqqa kirsam, bolalar qo'li bilan burnini berkitib olgan. Xonaga g'alati hid qamalib qolgan edi. Bolalar to'satdan hammaning ko'rpa-yostiqlarini ko'tarib, karavotlar tagidan isi chiqayotgan narsani qidira boshlashdi. Ular Komilning karavoti tagiga engashganda g'alati bo'ldi. Ikkita katta xaltani tortishdi-da:

– Uff, – deyishdi burunlarini yana ham qattiqroq berkitishib, – Tez ko'chaga chiqarib tashlanglar, – deyishdi.

Xaltadagi narsalar sochilib ketdi. Xonadagilar bizga qaradi. Nima deyishni bilmasdik...

# ZAMONAVIY URTO'QMOQ

*Ertak*

Bor ekan-da, yo'q ekan. O'zimizning zamonda Davronboy va Olg'irboy degan ikki qo'shni bor ekan. Davronboy otasidan hunar o'rganib, halol mehnat qilibdi. Xalq uni usta, deb e'zozlabdi. Olg'irboy esa bir ishga qo'l urarkan-u, tez foyda ko'rishga shosharkan. Shundan biror hunarni oxirigacha egallay olmas ekan. U kun yoyilguncha uxlar, turib tamaddi qilguncha peshin bo'larkan.

Keyin eshigining oldiga chiqib, bugun nima qilsam ekan, deb bosh qashib o'tirarkan. Mahalladagilar u bilan salom-alikdan nariga o'tgisi kelmas ekan.

Bir kuni Davronboy ishdan qaytayotsa, yo'l bo'yida yotgan laylakka ko'zi tushibdi. Laylak jarohat olgan ekan. Usta uni shart ko'taribdi-yu, choponing bag'riga o'rab, uyiga olib boribdi. Parvarishlabdi. Sog'aygach, uchirib yuborish uchun dalaga yo'l olibdi. Shunda laylak tilga kirib: „Tila tilagingni!“ debdi. Davronboy, menga hech narsa kerak emas, debdi.

Laylakvoy odamning ko'nglidan o'tganini anglarkan. Usta ancha paytdan beri bolalariga kompyuter va'da qilarkan-u, uddasidan chiqolmay hijolat bo'larkan. Laylak parvozga shaylanganda Davronboyning oldida katta quti paydo bo'ldi. Usta hayron bo'lib ochib qarasaaa, kompyuter ekan! Shoshib ko'targancha uyiga ravona bo'libdi. Yo'lda Olg'irboyga duch kelibdi. „Qayerlardan endi?“ so'rabdi u. Davronboy: „G'oyibdan sovg'a“, deb bo'lgan voqeani aytgisi kelmabdi. „Biram charchabsiz, dam olib bir piyola choy iching“, deb uyiga taklif qilibdi Olg'irboy. Paytdan foydalanib, qutining ichidagi zamonaviy kompyuterni o'zining eeski kompyuteriga

almashtirib qo'yibdi. Davronboy uyiga kelib, qutini ochibdi-yu, kayfiyati tushibdi. „Judayam eski ekan“, ko'nglidan o'tibdi. Ishlatmoqchi bo'lsa, hatto chirog'i ham yonmabdi... Nima qilishini bilmay, qutini yerto'laga berkitib qo'yibdi. Hech kimga hech narsa demabdi. Kunlar o'tib, Davronboy yana tanish daladan o'tayotsa, laylakka duch kelibdi. U pastlab uchib, kichikroq quticha qoldiribdi. Usta atrofga qarasa, hech zog' yo'q emish. Borib qutichani ochibdi. Qarasa, planshet ekan.

– E-e-e, – debdi, mayli shunisiga ham shukr. Endi bolalarim xursand bo'ladigan bo'ldi, – o'ylabdi u, quvonganidan tez-tez kelayotsa, yana Olg'irboyga duch kelibdi. „Xursandchilikni nishonlasak“, deya u uyiga taklif qilibdi. Mayli, deb Davronboy rozi bo'libdi. Olg'irboy paytdan foydalanib, eski planshetini yangisiga almashtirib olibdi. Usta uyiga kelib ne ko'z bilan ko'rsinki, ishlatgulik holi yo'q. Ranjib, uni uloqtiribdi.

Kunlar o'tibdi. Davronboy laylakni butunlay unutibdi. Tanish daladan o'tayotsa, uzoqdan laylakka ko'zi tushibdi-yu, tez-tez yurib keta boshlabdi. Laylak unga yaqinlashibdi. Usta esa qayrilib ham qaramabdi.

„Ey, yaxshi odam, bir zumga to'xta!“ ovoz beribdi laylak. „Shu safar ham hadyamni rad etma. Keyin o'zing xulosa chiqarasan. Faqat uyingga borguncha ochma!“

Usta o'ylanib-o'ylanib sovg'ani olibdi-yu, nima qilarini bilmay, o'ziga o'zi gapiribdi:

„Bu ham hech vaqoga yaramaydigan narsa bo'lsa kerak-da“. O'yi oxiriga yetmay, Olg'irboyning ovozidan o'ziga kelibdi:

– Bozoringiz juda chaqqon bo'ldi-ya qo'shni, har kuni sovg'a ustiga sovg'a.

– E-e, qo'ying, – debdi usta. – Siz bilan gaplashishga vaqtim yo'q.

– Olg‘irboy qo‘shnisining qo‘lidan tortib, choyni tashlab o‘tsangiz xafa bo‘laman, deb uyiga kiritibdi. Qo‘lidagi qutini bildirmay olib qo‘yibdi. Sal o‘tmay uning dod-voylagani mahallaga eshilibdi. Davronboy ovoz kelgan tomonga shoshibdi. Qarasa, tanish quti ochiq ekan. To‘qmoq olg‘irboyi savalayotganmish... Usta ularni ajratibdi. Uyatdan boshi egilgan Olg‘irboy kompyuter va planshetni egasiga qaytarib beribdi.

## **CHOLG‘UCHI QORBOMO**

*Ertak*

Kumush qish yo‘lga chiqibdi. Yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Tog‘- u o‘rmonni kezibdi. Zerikish nima bilmabdi. Uning qadami yetgan manzillar zardan libos kiyibdi. Osmon- u falak kaftida momiq parchalardan qorbo‘ron yasabdi. Jamiki jonzotlar bu tomoshadan zavqlanibdi. Mitti jonivorlar uyalarining tirqishiga boshini suqib, ko‘chaga chiqqisi kelibdi. Oyilari esa ruxsat bermabdi.

– Jon oyijon, qorbobo yasaylik, – debdi kichkina olmaxoncha.

– Menga sovuq ta‘sir qilmaydi-ku, – paxmoq qo‘llarini ko‘taribdi ayiqpolvon.

– Siz kuzatib turing, – deya ona ayiq tashqariga otlanibdi. – Katta bo‘lsangiz, o‘rganib olasiz. Hozir men bir qorbobo yasayki...

Ona ayiq tezda qorlarni uyubdi. Unga bo‘ri, tulki yordamga kelibdi. Ish o‘ngidan boshlanibdi. Ayiqpolvon asal yegan chelagini zap ko‘targanicha Qorboboning boshiga qo‘ndiribdi. Quyvon sekingina berkinib kelibdi-da, sabzidan burun yasab,

ortiga qaytibdi. Olmaxon esa oyisi kechagina to‘qib bergan bo‘yinbog‘ini Qorboboga bog‘lab qo‘yibdi. Ular quvnab, yangi yil kutamiz, deb reja qilibdi. Buni ko‘rgan qishning kayfiyati ko‘tarilibdi. Unga yo‘lida Ayozi uchrabdi-yu,... yer-u ko‘k oynadek muzlabdi. Jonivorlar inlaridan mo‘ralamabdi ham. Hatto archalar sovqotibdi. Izg‘irin shamol esibdi. Qorbobo o‘ynashga chog‘lanibdi. Atrofida hech kim yo‘qligidan ko‘zlarida munchoqdek yosh aylanibdi. Qorboning yolg‘izligidan xabar topgan sehrgar uning qoshida paydo bo‘libdi.

– Nima xohlaysan, tila tilagingni! – debdi sehrgar.

– Men bayramni do‘stlarim bilan kutib olmoqchi edim. Ammo ular izg‘irindan tashqariga chiqishmayapti, – xafa bo‘libdi Qorbobo.

– Musiqa chalishni bilasanmi? – so‘rabdi sehrgar.

– Albatta-da, juda maromiga yetkazib chalaman.

Sehrgar uning qo‘liga soz tutqazibdi. Qorbobo maroq bilan kuy chalganidan archalar tebranibdi. Muzlari zumda eribdi. O‘rmon, tog‘- u tosh kuylay boshlabdi. Hayvonchalar uylaridan chiqmay raqs tushibdi. Shunday shod-u xurramlik bilan yangi yil boshlanibdi. Cholg‘uchi Qorbobo esa hamon musiqa chalayotganmish.



# KABUTAR

## *Hikoya*

To'satdan sovuq tushdi. Ayoz boshlandi. Qor yog'magan bo'lsa-da, qahraton avjiga chiqdi. Bolalar qalpoqlarini bos-tirib kiydi, qo'lqopchalarini taqdi. Bog'chadan qaytayotgan Komron akasi Bahrom bilan quvlashmashoq o'ynardi. Bir-birini tutishardi.

Bahrom ukasini xursand qilish uchun ataylab „yetolmasdi“. Ikkisi terlab ketdi. Komron akasini mahkam tutmoqchi bo'ldi-yu, qo'lqopi ham yechilib yana ushlolmadi. Shunda boshidagi qalpog'ini oldi-da, akasiga otdi. Mo'ljal aniq olingandi.

– Ana, endi hisob, – Komron chapak chalib yubordi. – Men yutdim.

Bolalarining ovozini eshitgan Xurshida opa hovliga chiq-di-yu, – Boshingga kiy, hozir shamollaysan, – dedi ach-chiqlanib. U uyga kirdi. Deraza oldida turgan sharbatni idishi bilan ko'tarib ichdi... To'rt yoshli Komron ertalab-gacha isitmalab chiqdi. Ovozi bo'g'ilib qoldi. Bir hafta uydan chiqmay davolandi. Dam olish kuni buvisinikiga boradigan bo'lishdi. Buvisi sakkizinchi qavatda yashaydi. Ertalab romli ayvonning raxiga kabutarlar qo'nib, „g'u-g'u“lasha boshladi.

– Qarang buvijon, – dedi Komron, – ular urshayapti, terlab ketadi-ku.

– Yo'q bolajonim, kabutarlarning qorni och, – dedi, – hozir ularga non ivitib qo'yamiz.

Buvi non solingan idishga endi sovuq suv quyayotgan edi, Komron qo'llari bilan kosani yopti va: – Iltimos issiq suv quyung, – dedi. – Menga o'xshab ovozi bug'ilib qolibdi. Keyin, – u bo'ynini ushladi, – kabutarga qarang, tomog'i ham

og'ribdi. Endi oyisi xafa bo'ladi. Sekin ushlab meni sharfimni taqib qo'yaylik.


Buvisi kuldi-da, Komronni bag'riga bosdi.

## MARDONA QO'SHIQ

*Rivoyat*

Bir ayol uzoq vaqt farzand kutibdi. Yillar o'tib niyati ushalibdi. Bolasini yer-u ko'kka ishonmabdi. Tongdan shomgacha alla aytibdi. Orzu o'ylarini, armonlari ushalganini hirgoyisiga qo'shibdi. Dunyoning qay tarafiga boqsa farzandini ko'ribdi. Atrofdagi voqea hodisalarni unutibdi. Shunday kunlarning birida mamlakatni dushmanlar bosibdi. Uylarga o't qo'yilib, kishilar asir olinibdi. Biroq... ayol alla aytayotgan uy ostonasiga hech kim yaqinlasha olmabdi. Shunda bosqinchilarning boshlig'i g'azablanibdi.

– Nima gap? – debdi. – Bu muammoni o'zim hal qilaman, – deya xonadon eshigiga qadam qo'yibdi. Shunda



qulog'iga hech qachon eshitmagan ohang chalinibdi. Badanlari jimirlab ketibdi. Ovoz kelayotgan tomon yaqinlashibdi. Tuynukdan razm solibdi. Qarasa, ayol bolasiga termulgancha beshik tebratib xirgoyi qilarmish. Dushman ayolning tilini ham, nima deyayotganini ham tushunmabdi. Bu holatga bir muddat mahliyo bo'libdi-yu, hovliga chiqibdi.

– Bu dargohga hech kim yaqinlashmasin, – deya navkarlarini olib, ortiga qaytibdi.

Ayol alla aytishda davom etibdi.

## **MALIKAGA AYLANMAGAN AYOL**

*Ertak*

Onaning o'n nafar farzandi bor ekan. Dardu g'amning otini ham bilmas ekan. Yagona orzusi – yosharib, malikalardek go'zal bo'lish ekan. Ona tunu kun sehrgarni kutibdi. Kunlarning birida sehrgarning o'zi qarshisida paydo bo'libdi:

– Niyatingni daqiqada muhayyo qilaman. Lekin shartim bor, – debdi.

– Tayyorman, – ona ishonch bilan javob beribdi.

– O'n bolangdan uch nafarini o'zim bilan olib ketaman.

– Nimalar deyapsan? – ona ranglari oqarib, holsizlanibdi.

– Unda ikkitasi kifoya!

– O'ylab gapiryapsanmi?

– Mayli, bittasini beraqol.

– Bolam tugul tirnog'ini ham bermayman, – debdi ona. – Malika bo'lgandan ko'ra bag'ri butun ona bo'lganim afzal.




# SIZGA O'XSHASAM MAYLIMI, USTOZ...

*Hikoya*

Men maktabga hammadan birinchi boraman. Sinfga shoshib kiranman. Ustozimiz Nodira opa mendan ham avval keladi. Jurnalga yozayotgan yo gullarga suv quyayotgan bo'ladi. Ko'pincha salom berishga ulgurmasimdan, Aziza ke- layotganingni oyoq olishingdan bilaman, deydi. Hayronman, yurishning ham farqi bormi..? Ularga yordamlashgim keladi, yonlariga yaqinlashaman. Kuzataman, gap aytolmayman.

„Salgina katta bo'lgin, menga ko'makchi bo'lasan,“ – ustozim xayolimdan o'tganlarini qanday qilib bilib olarkin, deyman.

Yoki kichkinagina apparati bormikin..? Nodira opamiz hech kimga o'xshamaydi. Doim kulib turadi, lekin qattiqqo'!! Sinfimizda hamma, hatto to'polonchi bolalar ham ustozni



yaxshi ko'radi. Nimaga, deysizmi? O'quvchilarning savoliga ustoz doim chiroyli javob beradi. Keyin ular sinfimizning onasiga o'xshaydi. Hamma bola, ustoz meni yaxshi ko'radi, deb o'ylaydi. Kim xafa bo'lsa, tanaffusda bir o'zini chaqirib gaplashadi. Sehrli so'z aytadimi, darrov xursand bo'lib ketadi.


Bir zumda sinf bolalarga to'ldi. Qo'ng'iroq chalindi. Dars boshlandi. Ustoz doskaga katta harflar bilan yoza boshladi: „KIM BO'LSAM EKAN?“

– Shu mavzuda insho yozamiz, – dedi Nodira opa. – Qaysi kasb egasi bo'lmoqchisiz? Nima uchun? Shu haqida yozinglar. Bir-biringizga halaqit bermanglar.

Bolalar bir muddat ruchkalarini o'ynab o'tirishdi, asta shivirlashgandek bo'ldi. Sinf jim edi. Hatto o'quvchilarning yozayotgani eshitilardi. Men ham yoza boshladim:

– Imkoni bo'lganda edi, juda ko'p kasblarni egallardim. Shifokor bo'lib, bemorlarni tuzatardim. Me'mor bo'lib, chiroyli uylar qurilishiga hissa qo'shardim. Tarjimon bo'lsam, O'zbekiston haqida, ota-onam va Siz haqingizda dunyodagi hamma odam bilishini istardim. Ustoz, darslaringizga shoshib kelishimni bilasiz-a?

Nimanidir aytmqchi bo'laman-u, aytolmayman. Hammaning ustoz bo'larkan. U hech kimga o'xshamaydi. Men esa... Sizga o'xshasam maylimi, ustoz..?



## MEN KIMDAN KATTAMAN?

Nozim besh yosh, singlisi ham. Nozim hamma narsani bilgisi keladi, savolga tutadi.

– Buvi osmon kimdan katta?

– Hammadan.

– Yer-chi?

– Yeru osmon teng, bolam.

– Unda osmon bilan quyosh ham teng-da, a?

– Albatta.

– Dema-ak, – Nozim o‘ylanib qoldi, – ular ham, siz ham, bobom, dadam, oyim ham mendan katta. Daraxtlar, tog‘lar, dengizlar mana bunday, – qulochini keng yoydi. – Yana kichkinasi men. Bo‘lmasa men kimdan kattaman, a?

Bolalar ayting-chi, Nozim kimdan katta?

### „SOVG‘A“

– Bolalar, kim qanday sovg‘ani yaxshi ko‘radi? – dedi o‘qituvchi. – Tug‘ilgan kunda yoqtirgan narsani olish yoqimlida. Shunga qarab reja qilamiz, tabriklaymiz. Qani aytinglar-chi...

– Menga mashina, – dedi hozirjavob Sardor.

– Futbol koptogi zo‘r! – Zohidjon darrov joyiga o‘tirdi.

– Hammasidan planshet yaxshi, – Ifora o‘tirgancha javob berdi.

– Eng yaxshisi – kitoob! – Zarnigor qo‘lidagi kitobni baland ko‘tardi.

– Juda ko‘p „besh“larim bo‘lsa... – Aziz jimib qoldi. – Menga „besh“ sovg‘a qilinglar. – Kulgi ko‘tarildi.

– Bo‘pti, senga sovg‘amiz tayyor, – dedi o‘qituvchi.

Ko‘p o‘tmay Azizning tug‘ilgan kuni bo‘ldi. Dars boshlanishi bilan ustoz uning kundaligiga kaatta „besh“ qo‘yib berdi. Rustam ingliz tilidan, Bobur rus tilidan, Humoyun matematikadan, Ruxsora rasmdan olgan „besh“larini Azizga sovg‘a qildi. Uyiga xursand qaytgan Azizni dadasi kutib oldi va – Qani o‘g‘lim, kundaligingni bir ko‘ray, – dedi.

– Ox-xoo, zo‘rsan-ku, – dadasi kundalikni varaqlab quvondi. – Endi hamma aytgan narsalaringni sovg‘a qilaman. Qani bilag‘onligingni menga ko‘rsat-chi.

Azizning rangi oqardi.

Dadasi „a‘lo“ qo‘yilgan fanlardan savollar bera boshladi. Aziz esa birortasiga javob bera olmadi, hatto rasmni ham o‘xshatolmadi.

– Menga hech qanday sovg‘a kerak emas, dada, – dedi boshini egib.

## **O‘ZIMIZNING QALDIRG‘OCHLAR**

### *Hikoya*

Bahor keldi. Buvim bilan bobom ko‘klamni hammadan ko‘proq kutdi. Ular hovlidan uchgan har bitta qushga termulib qarardi.

– Nimaga kechikdiykin? – buvim bobomni savolga tutardi.

– Har kuni so‘raysan, – dedi bobom. – Qaldirg‘och aqlli qush. O‘n yil o‘tsayam uyasini topib keladi.

– Shunday deng... – buvim jilmayib qo‘ydi.

Maktabga hali chiqmagan paytlarim edi. Dahlizli ayvonning burchagi qaldirg‘ochlarga to‘lib ketardi. Bu qaldirg‘ochlar va bizning hovlimiz, deb o‘ylardim. Keyin bilsam, ular

mehmon ekan. O'tgan yili qaldirg'och beshta bola ochdi. „Chug'ur-chug'ur“idan quloqlarimizga barmoqlarimizni qo'yib olardik. Oynalarni esa keng ochib qo'yardik. Ona qaldirg'och tumshug'idagini bolalariga tutardi. Tez-tez uchib ketar va bir zumda qaytardi. Kunlarning birida qattiq shamol bo'ldi. Dahliz eshigi „qars“ etib yopildi. Buvim ayvonga chiqdi. „Voooy“ degan ovoz eshitildi. Hammamiz bir-birimizga qaradik, dahlizga yugurdik. Buvim yerda tipirchilab yotgan ona qaldirg'ochga qarab turardi. Ko'zi to'la yosh edi.

– Eshikka urilibdi, eshik siqibdi, – bobom qon sizayotgan qaldirg'ochni qo'liga oldi. Hovliga chiqdi.

Qaldirg'och bolalari nimanidir sezgandek yanayam qattiq chug'urlashardi.

– Endi bu polaponlarni qanday ovutamiz, – buvim nima qilarini bilmasdi.

Zum o'tmay ostonada bobom ko'rindi.

– Bu beozor jonivor. Qo'lingga olsang lat yeydi, – dedi bobom. – Endi bir yo'lini topishimiz kerak. Och qolsa o'ladi, hali uchishga yetilmagan.

Xonaga – uyaga yaqin qilib narvon qo'yildi. Bobom bilan buvim qo'llaridagi ushoqni navbat bilan qaldirg'och bolalariga tutardi. Lekin ular bir narsani sezgandek tinimsiz chug'urlashardi. Ikki kun o'tib, o'rtadagi qaldirg'och jim qoldi. Tumshug'iga ovqat tutsa ham, ko'zini ochmadi. Yana bir kun o'tdi. Qop-qora polaponcha ham uyaning bir chekkasida qotib qoldi. Hammamizning ko'zimiz qizardi. Bir-birimizdan berkindik. Bir necha kun o'tdi. Jimib qolgan qaldirg'ochlar sekin qanotlarini silkidi. Uyimizda bayram boshlandi. Ko'p o'tmay qaldirg'ochlar uchib qo'nadigan bo'ldi. Ular bir-biriga hech o'xshamasdi. Kunlar sovishi bilan qaldirg'ochlar uchib

ketdi. Endi esa buvim kun sanaydi. Bugun keladi, deydi har kuni ertalab.

Nonushta qilayotgandik. Ayvondan potirlagan ovoz eshitildi.

– Musicha qamalgandir, derazalarni ochinglar, – dedi bobom.

Yugurib yurgan ukamni ovozi eshitildi:

– Buvijon tezroq keling, qaytib ketmasin yana.

Qorni oppoq, peshonasi do‘ppaygan, dumi oq-qora qaldirg‘ochlar dahlizda aylanib uchardi.

– Voy o‘zimizning qaldirg‘ochlarmi? – buvim yig‘lab yubordi.

Birozdan so‘ng asta qaldirg‘ochlar uyaga qo‘na boshlashdi.

## YOZNING UYI

### *Hikoya*

– Oyijon, nechta uxlasak oromgohga boramiz? – Hadicha har kuni onasiga shu savolni beradi.

– Hali kichkina bo‘lsang...

– Axir katta bo‘ldim-ku, – qizcha qo‘lidagi qo‘g‘irchog‘ini orqasiga berkitadi. – Birinchi sinfni bitirdim. Buvim aytdilarku, endi senga ishonsa bo‘ladi, deb.

– Juda to‘g‘ri aytgan-da buvijoning, – ona Hadichaning sochlarini silab, bag‘riga bosdi. – Lekin uyni, bizlarni sog‘inib yig‘lamaysanmi?..

– Bittayam yig‘lamayman! Keyin-chi, akam ham birga ketadi-ku...

Tohir singlisi bilan oromgohga otlandi. Bu joylar juda salqin edi. Oradan ikki kun o‘tdi.

– Tog‘lar shummi? – so‘radi Hadicha. – Sovuq ekan.

– Yo‘q, – dedi akasi. – Tog‘larga ancha uzoq. Bu tog‘larga tutash qirliklar.

– Tog‘larni oyisi bo‘ladimi? – qizcha gapini davom ettirmadi.

– Nima, darrov yig‘lamoqchimisan? – akaning ovozi balandladi. – Aytgandi-ku uydagilar...

– Hech qachonda... – uning ovozi dadillashdi.

Guruh boshilarning chaqirig‘i eshitildi. Bolalar maydonga yig‘ilishdi.

– Diqqat bolalar, – oromgoh tarbiyachisi o‘quvchilarga yuzlandi. – Rasm chizish bo‘yicha tanlov e‘lon qilamiz: „Mening uyim“ mavzuida. Uch kun muhlat. G‘oliblarga sirli sovg‘amiz bor!

– Men ham qatnashsam bo‘ladimi? – Hadicha qo‘lini ko‘tardi. Akasi unga qarab qo‘ydi.

– Hamma ishtirok etishi mumkin...

Kech kirdi. Hadicha dadasi sovg‘a qilgan rangli qalamlarini sumkasidan oldi. Har kuni tungi chiroq yoqilguncha ish stolidan turmadi. Ko‘p o‘chirdi, qayta-qayta chizdi. Tayyor bo‘lguncha, hech kimga ko‘rsatgisi kelmadi.

Hatto akasiga ham aytmay, ishlarini tarbiyachisiga topshirdi.

Tanlov yakunlarini e‘lon qilish boshlandi. Uchinchi, ikkinchi o‘rin egalari taqdirlandi.

Endi, – deb gap boshladi oromgoh rahbari. – Bir rasm hech kimnikiga o‘xshamasligi bilan bizni o‘ylantirib qo‘ydi. Mana qaranglar. Hamma rasmni yaqinroqdan ko‘rgisi keldi: ko‘p qavatli uy, bobo-buvi, ota va ona. Mahalladagi maydoncha. Ikkinchi qo‘shilib ketgan rasmda oromgohning bir ko‘rinishi,

bolalar. Yana yomg'ir shivalab yog'ayotgan, mevalar pishgan adoqsiz dalalar. Rasmlarning tepasiga „Mening uyim“ va „Iyun, iyul, avgust – yozning uyi“. Ular eng yaqin o'rtoq“ deb yozib qo'yilgandi.

Rasmning muallifi e'lon qilindi. Hadicha ko'zlaridagi yoshni akasiga ko'rsatgisi kelmasdi. Ammo akasi unga qarab kulib turardi.

## **BUVI VA NABIRALAR**



### **CHUMOLINING SOYABONI**

#### *Hikoya*

Qutbinisa qaqildoq qizaloq. Besh yoshda. Hamma savolga javobi tayyor. O'zi ham bergan savoliga javob olmaguncha qo'ymaydi.

– Buvijon, – dedi barmoqlarini ochib ko'rsatarkan, – o'n kundan keyin kichkina buvingnikiga – qishloqqa borasaaan, degandingiz. O'tib ketdi-ku ikkita... Har kuni sanayman.

– Bolam, oying ham ta'tilga chiqishi kerak.

– Unda mening ta'tilim tugab qolsa-chi?

– Yo'q, yo'q. Unday bo'lmaydi, – buvi nabirasini bag'riga bosdi. – Bugun kechki payt ketasizlar.

– Urreee. Rostdanmi?.. – Qizaloq xonasi tomon yugurdi. Necha kundan buyon sumkachasiga solib oladigan kiyimlarini yana qayta ko'rib chiqdi. Shu payt eshik ochildi.

– Mana buni qo'lingdan tushirma, – dedi buvi oppoq, qalin gulli to'rga o'xshagan soyabonni nabirasiga tutqazarkan.

– U yoqlarda quyoshning tig'i qattiq kuydiradi. Mehmonga borsang ham, cho'milishga tushsang ham ko'tarib ol.



– Nimaga?..

– Oftob ursa, odam isitmalaydi. Keyin oying xafa bo'ladi. Yaxshi dam ololmaysizlar.

– Xo'o'p, – Qutbiniso derazadan hovliga qaradi, – oyim kechikyapti. Ko'chada kutib turaman.

Qizaloq eshikka yetmasdan oyisi ko'rindi. Shippagini kiymoqchi bo'ldi. Bir poyi yo'q edi. Qarasa uch yoshli ukasi darvoza oldiga tashlab qo'yibdi. Bir oyog'iga shippak kiygan Qutbiniso hakkalab-hakkalab yurdi-yu, to'xtab qoldi. Qarasa, gul bargi o'z-o'zidan yuryapti. Shamol yo'q, agar uchib kelgan desa. Hayron bo'ldi. Zum o'tmay bildiki...

– Buvijoon, – dedi qizaloq uy tarafga yuzlanib. – Tezroq kelaqoling! Chumolilar ham soyabon tutib olishibdi.

– Dono qizim mani, – buvi nabirasining peshonasidan o'pib qo'ydi.

## YERNING KO'RPASI

### *Hikoya*

„Fasllarning almashishi qanday mazza! Qish kelsa, qorni kutamiz, qor yog'sa, Yangi yilni. Ammo allaqachon qish boshlangan bo'lsa-da, qor yo'q. Qaniydi gup-gup etib laylakqor yog'sa! Chana uchardik, qorbobo yasab, qorbo'ron o'ynardik“ – xayolimda o'zim bilan o'zim gaplashardim. Shu payt yelkamga qo'l tashlandi. O'girilib qaragam, katta bobom! Ularni achomlab oldim. Shu payt qushlarning ovozi eshitildi.

Osmonga qaradik, aylana shaklidagi qushlar galasi ko'rindi.

– Qushlarning parvozi pastlasa, qish yaxshi keladi, – dedi bobom.

- Rostdanmi? – dedim ularga tikilib.
- Albatta, o'g'lim, albatta-da.
- Keyin qor ko'o'p yog'adimi?
- Shunday... keyin yer qorko'rpasini yopib, uyquga ketadi.
- Voy, yerning ham ko'rpasi bo'ladimi-a?!
- Bo'lmasam-chi! Qor ko'p yog'sa, g'allamiz mo'l, dasturxonimizda non to'kin-sochin bo'ladi.
- Nima, non qordan yasaladimi?



Bobom kuldi.

– Qor zaminga darmon dori. Kuch beradi. Keyin hosilga baraka kiradi. Faslning hikmati ham shu.

Bobom qo'llarini duoga ochdi, men ham. Zum o'tmay, qishning qahri bilindi. Burunni chimchilab oladigan izg'irin turdi.

Ertalab uyg'onsam... yer-u osmon oppoq edi. Bo'ralab qor yog'ardi. Bobomning yotog'i tomon yugurdim. Ular romli ayvonda hovliga termulgancha xayol surardi.

## O'ZIMNING ERTAGIM

### *Ertak*

Shahzod bilan Shamshod qo'shni, eshiklari ham bir-biriga qaragan. Ertalab bir vaqtda turishadi. Ularning buvisi bor. Nabiralari quyosh chiqmasdan uyg'onishga odatlanishgan. Bog'chaga ham birga borib, birga qaytadi. Ertalab Shahzodning buvisi ikkalasining qo'lidan tutib, kuzatib qo'yadi. Har kuni yo'lda ertak aytib beradi. Ertakdagilar xuddi mahallaning bolalariga o'xshaydi: ismi ham yurish turishlari ham.

– Buvijon, bularni sizga kim gapirib bergan-a? – so'raydi Shahzod.

– O'qiganim, eshitganim...keyin o'zimning ham ertagimni aytaman bolam, – miyig'ida kulib qo'yadi.

– Unda hammaning ertagi bo'ladimi-a?

– Albatta...

Qaytishda Shamshodning buvisi uyga yetguncha topishmoq aytadi. Kim ko'p javob topsa, shirinlik bilan siylaydi. Bayramlarda rangli qalam sovg'a qiladi.

– Bu sirli mo'yqalam, – dedi buvisi.

– Ko‘rganlaringni, o‘ylaganlaringni, ertaklarni qog‘ozga tushirasizlar.

– Ertakni ham chizib bo‘ladimi?

– Rasmi – ovozsiz gapiradigan sehrgar, – buvi gapida davom etdi. Ular mahallasiga yetib kelishgandi. Shahzodni uy eshigida oyisi kutib turardi. Bu holat uzoq paytdan buyon takrorlarnardi. Bolalar o‘zining ertagini ham, suratini ham o‘xshatolmasdi. Bundan xafa bo‘lardi.

Qish oxirlab qolgandi. Bog‘cha opa mashg‘ulot boshladi.

– Bolalar hademay buvijon va onajonlar bayrami. Ular haqida she‘r yodlaymiz. Keyin onangizning qanday yaxshi ko‘rishingizni aytib berasiz.

– Ertak aytsak ham bo‘ladimi?- dedi Shahzod. – rasm chizsakchi?!

Hamma jim edi. Bog‘cha opa qarsak chaldi. Bolalar bir-biriga qarab turdida, qarsakka qo‘shildi.

Bir necha kun o‘tdi. Xona bayramona bezatildi.

– Qani, bolalar, kim oyisi haqida birinchi bo‘lib gapirib beradi?

Kutilmaganda bolalarning qo‘llari baravariga ko‘tarildi. – Men aytay...

– Dunyodagi eng mehribon odam – Mening oyim, – Sitora qulochini keng yoyib, o‘zini o‘zi quchoqlab qo‘ydi.

– Onamning ko‘ziga oy berkinib olganga o‘xshaydi. Kulmasa ham, ko‘zi kulib turadi, – Bahrom barmoqlari bilan ko‘zini katta ochdi. – Mening oyim guldani ham chiroylida, – Mohiniso kaftlarini keng ochib tabassum qildi.

– Unda oyijonim yuradigan gul, to‘g‘rimi, bog‘cha opa? – Ular qayerga borsa, nima ish qilsa, buvim gul bo‘lib ketdi, deydi.

– Onamni hatto uloqchamiz ham yaxshi ko‘radi. Ortidan qolmaydi, – Samandarning gapidan kulgu ko‘tarildi.

Bir chekkada turgan Diyora qo‘lidagi karton qog‘ozni ochdi. Va o‘rtoqlariga ko‘rsatdi. Unda bir xil uchta qizaloqning surati chizilgandi.

– Buvim, oyim, men,– dedi qo‘li bilan ko‘rsatib. – Hamma bizlarni shundoq o‘xshaysizlar, deydi. Men qanday buvimga o‘xshashim mumkin. Ular kampir bo‘lsa. Xafa bo‘lmasin, deb bir xil chizdim. Endi buvimga ro‘mol o‘rataman. Oyimning sochlarini chiroyli turmaklab qo‘ysam bo‘ldi.

Deyarli hamma gapirdi. Shahzod bilan Shamshod bir chekkada turardi. Ular kattaroq karton qog‘ozni birga ushlaganicha pichirlashardi.

– Qani, qaysi birlaring gapirasizlar? – dedi bog‘cha opa. – Ikkalamiz chiqsak bo‘ladimi? – Shamshod sekin gapirdi. Ammo hamma eshitdi.

– Bo‘lmasamchi.

– Biz eng katta narsa chizmoqchi edik, – Shahzod asta qog‘oziga qarab gap boshladi. – Bizdan daraxtlar katta ekan. Daraxtlardan esa osmon katta. Hammaning onasi bo‘ladi. Osmonning onasi bo‘lganmi?! Lekinchi, bizning oyimiz osmondan ham kattaga o‘xshaydi-da. – Ular qo‘lidagi suratni baland ko‘tarib bolalarga ko‘rsatdi: onasining bag‘rida osmon, bolalar, daraxtlar ifodalangan edi. – Bog‘cha opa, – dedi Shamshod, – Bu suratimizning ustiga „O‘ziming ertagim“ deb yozib qo‘ying...

## SAVOL HAM JAVOB HAM SIZDAN

Bolalardan bolalarga.

Bayramga dasturxon tuzadik. Dasturxon atrofidan mening buvim, oyimning buvisi ham joy oldi.

Ayting-chi, davrada necha nafar nabira, necha nafar ona va necha nafar buvi bor?

\* \* \*

Nozimbek yaqinda olti yoshga to'ladi. Zehni o'tkir. She'rlarni ham bir zumda yodlab oladi. Hisobga ham zo'r. Yana hech kimdan hech qachon narsa qizg'anmaydi. Azizbek u bilan tengdosh. O'rtog'iga havasi keladi-yu, faqat...

Bugun ham shunday bo'ldi. Nozimbekning bobosi daraxtga ilingan xaltani ochdi-da, Azizbek ikkisiga kaftlarini to'ldirib yong'oq berdi. Shunda mahalla bolalari ularni o'ynashga chaqirib qoldi.

– Topdim, endi yong'oq o'ynaymiz, – deya Nozimbek o'rtoqlariga yong'oq ulashdi. Qarasa, o'ziga yo'q. Bo'sh qo'llarini cho'ntagiga tiqdi-da, – men o'yinlaringni kuzataman, – deb o'tirib oldi. Azizbek yong'oqlarini mahkam ushlaganicha bir muddat jim qoldi. Hammaga bir-bir qaradi. Keyin Nozimbek tomon yurdi. Kaftidagi yong'oqlarini yerga to'kdi:

–Teng ikkiga bo'lamiz, – dedi asta. Yarmi senga, qolgani menga.

Buni kutmagan o'roqlari jim qolishdi. Ularni anchadan buyon kuzatib turgan Azizning buvisi keldi-da, Nozimbekning peshanasidan o'pib qo'ydi...

Aytingchi bolajonlar, nimaga bunday bo'ldi?

Shodiyona bog'chaga borishni yaxshi ko'radi. Hammadan ham bog'cha opasi boshqacha-da. Nimani so'rasa, darrov javobini aytadi. U esa savol berishdan charchamaydi:

– Ayiqning bolasini nima deydi?

– Ayiqcha.

– Ko'ylakning kichkinasini-chi?

– Ko'ylakcha-da, qizim.

– Unda siz menga o'rikcha olib bering.

Bog'cha opasi kulib yubordi:

– O'rikcha emas, dovuchcha, degin.

– Yo'o'q, – dedi Shodiyona, – bog'cha opalar to'ppa-to'g'ri tushuntiradi-yu, – meni o'rikcha yegim kelyapti.

Bog'cha opa o'ylanib qoldi.

Bolajonlar, nega bunday hol ro'y berdi, a?..

## MAKTUB NUSXASI

### *Hikoya*

Men to'rtinchi sinfda o'qiyman. Akam oltinchi sinf. Uni hamma to'polonchi deydi. Lekin ularning hech biri akamning mehribonchiligini bilmaydi. Onamga sal og'ir ko'tartirmaydi. Menga esa „Qiz bola o'zini ehtiyot qilishi kerak“, deydi.

Akamning sinfida ota-onalar majlisi bo'lsa, onam ko'ziga yosh oladi:

– Yana boshimni egib o'tiramanmi?

Akam indamaydi.

– Ayt, boshqa bolalardan nimang kam?!.. Yaxshi o'qisang, odobli bo'lsang, deb orzu qilaman...

Onam qo'lining ustiga boshini qo'yib jim qoldi. Yig'ilishga bormadi. Ertasi kuni edi. Odatdagidek akamning sinf rahbari Gulzuhra opa meni chaqirdi.

– Oying bilan qo'shninglar Nurbekning onasi darsga kelmadi, – dedi.

– Bu xat onangga, bunisini Nurbekning oyisiga! Shaxsan o'zlariga ber, – ular shoshgancha daftarlar solingan chiroyli sumkasini ko'tarib sinfdan chiqib ketdi.

Go'yo xayolimga shamol qamalib qolganga o'xshardi. Xatni olib borsam, onamning kayfiyati qanday bo'ladi? Nurbekning oyisiga yozilgan xatni ochdim: „O'g'lingizning o'qishi kun sayin o'zgaryapti. Bu ketishda a'lochilar safidan joy olishi turgan gap. Sinfdoshlari bilan munosabatiga hammaning havasi keladi. Sizdan iltimos, agar o'g'lingiz xorijiy til o'qishga ham astoydil kirishsa, kelajakda o'z o'rnini topib ketishiga astoydil ishonaman...“ Yuragim urib ketdi. Qaniydi mening oyimga ham shunday xat yozgan bo'lsa. Oyimga berilgan maktubni ochdim-u... yopdim. Xayolimga kelgan fikrdan quvonib ketdim. Nurbekning oyisiga berilgan xatni chiroyli qilib ko'hirdim. Oyimga berilgan xatni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib yashirdim. Va o'zim yozgan xatni qo'shnimizga olib kirib berdim. Ustozning xatini esa oyimga tutqazdim. Ularning yonida o'tirgan akam endigina ovqatga qo'l uzatgan ekan. Menga bir qaradi-da, ovqatdan qo'lini tortdi.

– Yana nima shikoyat ekan? – oyim bir zum xatni ochmay o'ylanib turdi. Keyin, ustozingning gaplarini quloqlaring bilan eshit, deb ovoz chiqarib o'qiy boshladi.

– Ko'zlarimga ishonmayman, – dedi onam. Akam bir menga, bir onamga qaradi. Onam akamni bag'riga bosdi-



da, – meni kechir, o'g'lim. Seni shunchalar o'zgarganingni sezmaganimni qara, – dedilar.

Akam xonasiga kirib ketdi. Allapaytgacha xonasining chirog'li o'chmadi. Bu hol har kuni takrorlanadigan bo'ldi. Gulzuhra opa meni ko'rib, akangdan xursandman, dedi. Oyimning quvonchini ko'rsangiz edi. O'quv yili yakunlanayotganda kutilmagan voqea bo'ldi. Akam yaxshi o'qiganligi uchun faxriy yorliq bilan taqdirlangan edi. Yana inglizcha, ruscha lug'atlar ham sovg'a qilishibdi...

Men yashirgan xat bo'laklarini yana ham maydaladim. Esgan shamol kaftimdagi maktub parchalarini uchirib ketdi.

## **SO'ZNING RANGI**

Qo'ng'iroq chalindi. Dars boshlandi. Muallim o'quvchilar bilan salomlashdi.

– Qani, uyga vazifani kim aytadi? – o'qituvchi bolalarga yuzlandi. Hamma baravar qo'l ko'tardi: – Men aytay, men aytay...

– Doska yoniga kel! – dedi ustoz oxirgi partada o'tiradigan Shahzodga. Keyin u katta harflar bilan yozdi:

„SO'ZNING RANGI“

– Kim javob beradi?

Sinfga jimlik cho'kdi. Hozirgina men, men deyayotgan bolalar indamay qolishdi.

– Mavzu tushunarli emasmi? Kim yozolmagan bo'lsa, og'zaki aytsa ham bo'ladi.

O'qituvchi gapini yakunlashi bilan yana qo'llar ko'tarildi.

Bir chekkadan hamma fikrini aytdi.

– So'zning rangi gullardan ham chiroyli, – dedi Barno.

– Jahl chiqqanda uning rangi xunuklashib ketadi, – Asqar tez javob berdi-yu, joyiga o'tirdi.

– U goho osmonga o'xshaydi, goho tog'dan rang oladi, – Zulxumor sochlarini o'ynardi.

– Bilsang, – dedi Mirg'ayrat, – to'qindan-da kuchli, yashinga o'xshaydi.

– Yo'q, buvimning aytishicha, so'zning ranggi tiniq bo'lsa, tinchlikning ovozi eshitilarmish, – tortinibgina javob berdi Nabi.

– Kamalak ham uning odida hech narsa emas, – bilag'on Nasiba yana qo'shib qo'ydi. – Uning rangini hisoblasak, voybo'o'o'... oxiri yo'q.

Kulgi ko'tarildi.

– Men ham javob bersam maylimi? – anchadan beri doskaning oldida tik turgan Shahzod qo'l ko'tardi.

– Albatta, – dedi o'qituvchi, – eshitaylik-chi.

– Mening o'ylashimcha, so'z onaning va ustozlarning mehridan rang olgan bo'lsa kerak.

Ustozning ko'zlari namlandi.

Sinfga jimlik cho'kdi.

## **MENING BUVIM KAMPIR EMAS**

– Endi donishmand chol va kampir haqida ertak o'qiy-miz, – bog'cha opa bolalarga yuzlandi. Qani, aytinglar-chi, kim buvi va bobosi bilan yashaydi?

Old qatorda o'tirgan Mahmud birinchi bo'lib qo'lini ko'tardi.

– Men, – dedi u. – Faqat mening buvim kampir emas, bobom ham chol emas. Oyim bilan dadamdan salgina yoshlari katta xolos.

## QO'L TUTISHGAN DARAXTLAR


– Buvijon, qo'lingizni bering, – mahallaning bolalari davra oladi. O'yin avjiga chiqadi.

– Qarang, bizga guldagi kapalak ham, daraxtdagi qushlar ham havas qilyapti, – Asolat davradan chiqib, gullarning boshini silab qaytadi. – Qo'lingizni bering, buvijon...

– Endi o'yindan chiqsam, bolam, – buvijon qo'llarini asta olmoqchi bo'ladi.

– Yo'-o'q, nimaga endi. Daraxtlarga qarang, ular katta bo'lsayam hammasi bir-biriga qo'llarini uzatgan. Qo'llari osmonga yetay-yetay deyapti.

Bolalarning kulgisi osmondan balandlaydi. Tinchlikning ovozi oydan ham, quyoshdan ham oshib, osmonga yetadi. Olamga qo'l tutadi.



## QUSHLARNING KATTA ONASI

Hali tong ham oynalarini ochmagan. Qayerdan bilding, deysizmi? Chunki, onam xonamga kirdi. Deraza darchasini qiya qilib qo'rganini sezdim. Mudroq ko'zlarimni zig'irttakina ochmasdan yopdim. Ko'rpamni boshimgacha tortdim.

– Ko'klamning havosi shifo, – dedi onam past ovozdagi meni uyg'otib yubormaslik uchun.

– Bahor boshlanmadiku hali, – ko'rpaning ichidan ovoz berdim.

– Bahor uyg'oq bolam, uyg'oq. Atrofga qarasang kaftdek ko'rinadi.

Sakkizinchi qavatning oynavand romi raxiga non ushoqlarini sepayotgan onamning oldiga yaqinlashdim. Kun yorishmagani uchun qushlar ham ko'rinmasdi. Sal vaqt o'tmay avval qora qushlar, keyin kabutarlar uchib kela boshladi. Bizlar oynadan uzoqlashib ularni kuzatardik. Oq, tumshug'ida qorasi bor kabutar qanotlarini keng yoyib, boshqalarni yaqinlashtirmasdi. Ko'kragini do'ng qilib ularni surib tashlardi.

– Ichiga ushoq kirsin, keyin sal shashti pasayadi. Bu o'zi to'polonchi, – har kuni qushlarga yegulik qo'yadigan onam ularni yaxshi biladi.

Rostdan ham, asta sekin boshqa qushlar birin ketin donlashga tushdi.

Ochlikni unutkan qushlar „g'u-g'u“lashadi.

– Ana, rahmat degani bu. Kayfiyatini qara.

Hayron qoldim. Onamga yuzlandim.

– Oyi, siz qushlarning katta onasimisiz? – onam kuldimi, jilmaydimi. Bilmayman. Ammo atrof yashilzor edi. Yashil tabassumli kimdir ko'z o'ngimda surat chizardi.

## **BARAKA CHO'PONI**

Sakkizinchi qavat. Buvim aytgandek, kun chiqish bilan kun botish ko'rinadi.

– Fasllar almashadigan payt bir mo'jiza bolam, – buvim ko'zoynagini taqib derazadan razm soladi. – Bir kechada daraxtlar gulko'ylaklarini egniga iladi.

Men esa o'yg'a tolaman, xayol ko'chasiga kiraman: adoqsiz kenglikda o'n ikki bahodir davra olib aylanadi. Uchtasi kumush to'n, uchtasi zumrad libos, uchtasi zarg'aldoq chakmon kiygan. Uchtasi esa baraka choponida, rangini topolmayaman, topolmayapman. Siz menga yordam berolasizmi, aziz bolajonlar?!

## **KO'KLAMNING OVOZI**

Ko'zimni yumib, quloqlarimni berkitaman. Keyin ochaman. Bir xil manzara, bir xil ovoz. Notanish. Yo'q, u qadrdonlar haqidagi ertakning kuyiga o'xshaydi. Uni eshitsangiz, ortidan oyoqlaringiz ketib qolganini bilmaysiz. Zavqlanib boqsangiz, bahor mo'ralayotganga o'xshaydi. Qayerdan deysizmi? O'zim ham bilmayman: ko'klamning derazasi oymi yo osmonmikin? Qiziq, bahorni kim uyg'otadi, u-chi, kimning mudroq ko'zlarini ochadi?!

Shoshqaloq shamol shashtidan ariqdagi suvlar ovozi ham bo'g'iladi. Bulutlar quyuqlashadi Fursat o'tmaydi. Yomg'ir chelaklab chelaklab yog'a boshlaydi. Teraklarning boshi egiladi. Maysalar yerning yelkasida ko'z ochadi. Turnalarning ovozi olamni tutadi. Zamin titrab, seskanadi. Zumrad libosli Yangi kun tug'iladi. Navro'zi olam boshlanadi.

# MUNDARIJA

Zag'izg'onning arg'imchog'i.....	3
Tuproq o'ynayotgan bola.....	5
Mening aziz vatanim.....	7
Bizning buyuk bobolarimiz.....	8
Maktub yozayotgan bola.....	10
Tuganmaydigan xazina.....	12
Quyosh bilan salomlashaman.....	14
Onaming bog'cha opasi.....	15
Osmondagi qushlar uyasi.....	16
Qorning ovozi.....	18
Niqob.....	19
Insho.....	21
Men bahorni ko'rdim.....	23
Lola o'g'risi hikoya.....	25
Qish keltirgan bolalik.....	27
O'n barmog'im – o'n hunar.....	29
Gullar, kitoblarga atalgan gullar.....	37
Men ustoz bo'lmoqchiman.....	33
Gulning onasi chiroylimi.....	35
Tabib qushlar.....	37
Devorqalam.....	38
Ustozning noni.....	38
Uddaburon olmaxon.....	40
Bahorning ukasi.....	42
Men kimga o'xshayman.....	42
Chiroqning uyi qayerda.....	43
Dono ilon.....	43

Tabiatning nafasi.....	45
Buvinning sayohati.....	45
Mehrimohimning hikoyasi.....	46
Ko'zimning ichidagi chiroq.....	47
To'rt o'rtoq .....	48
Zamonaviy urto'qmoq.....	50
Cholg'uchi qorbobo.....	52
Tomog'i ogrigan kabutar.....	54
Mardona qo'shiq.....	55
Malikaga aylanmagan ayol.....	56
Sizga o'xshasam maylimi, ustoz.....	57
Men kimdan kattaman.....	59
„Sovg'a“ .....	59
O'zimizning qaldirg'ochlar .....	60
Yozning uyi.....	62

## ***BUVI VA NABIRALAR***

Chumolining soyaboni.....	64
Yerning ko'rpasi .....	65
O'zimning ertagim.....	67
Savol ham javob ham sizdan.....	70
Maktub nusxasi.....	71
So'zning rangi.....	73
Mening buvim kampir emas.....	74
Qo'l tutishgan daraxtlar.....	75
Qushlarning katta onasi.....	76
Baraka choponi.....	77
Ko'klamning ovozi.....	77

84-445 (50'zb)  
Y18

**Dilfuza Shomalikova**  
Zag'izg'onning arg'imchog'i / Hikoya [Matn]: D. Shomalikova. –  
Toshkent: „Ensiklopediya“ nashriyoti MCHJ, 2022 y. – 80 bet.

ISBN 978-9943-07-760-7

UO'K 821.512.133-32  
KBK 84-445 (50'zb)

Dilfuza Shomalikova

# ZAG'IZG'ONNING ARG'IMCHOG'I

„Ensiklopediya“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Muharrir *Dilfuza Komiljonova*  
Badiiy muharrir *Toshturdiyev Shohrux*  
Rassomlar: *Iroda Turdimuxamadova*  
*Nigora Nusratova*  
Sahifalovchi *Shahnoza Sobirova*  
Musahhih *Azamat Xudoyberganov*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 14.10.2022.

Bichimi 70×108<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Kegli 14. Garn. „Arial“.  
Hisob-n.t. 5,0. Adadi 5 000 nusxa. Buyurtma №



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya\_nashriyoti\_MU2021



Ensiklopediya\_nashriyoti





**ENSIKLOPEDIYA**  
NASHRIYOTI



Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Muqimiy ko'chasi, 178-uy.



Ensiklopediya\_nashriyoti\_MU2021



Ensiklopediya\_nashriyoti

ISBN 978-9943-07-760-7



9 789943 077607

